

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 331.561/.57

USMANOV BEXZOD RUSTAM O'G'LI

**ISHSIZLIKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI VA UNI
BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Mutaxassislik: 5A230102 - «Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Toshkent – 2015

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

i.f.n., dotsent B.Rustamov

Kafedra mudiri

i.f.d., professor T.Jo'raev

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

MUNDARIJA

	KIRISH	
I-BOB.	Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uni bartaraf etishning ahamiyati.....	
1.1.	Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari.....	
1.2.	Bozor tizimi sharoitida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish mexanizmi.....	
1.3.	Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.....	
	I - bob bo'yicha xulosa.....	
II -BOB.	O'zbekistonda ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasining qiyosiy taxlili.....	
2.1.	Respublikada ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishda mehnat birjalarining roli.....	
2.2.	Respublikada yangi ish joylarini tashkil etishning ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishdagi o'rni.....	
2.3.	Respublikada samarali ijtimoiy siyosatning ishsizlikning salbiy oqibatlarini bartaraf etishdagi ahamiyati.....	
	II- bob bo'yicha xulosa.....	
III -BOB.	Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari.....	
3.1.	Respublikada samarali bandlik siyosati orqali mehnat bozori barqarorligini ta'minlash.....	
3.2.	Aholini ishsizlikdan himoya qilishning bozor va davlat mexanizmini takomillashtirish.....	
3.3.	Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini istiqbolli yo'nalishlari.....	
	III - bob bo'yicha xulosa.....	
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
	ILOVALAR	

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi davrda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar mamlakatimizning har bir hududida o'zining ijobiy samarasini berayotgani bejiz emas. Ammo shuni aytish kerakki, mamlakatda ishsizlik darajasining mavjudligi, agar iqtisodiyotga davlatning aralashuvi kamaytirilsa, bugungi kunda, ayniqsa, butun dunyoda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlari bartaraf qilinayotgan bir davrda, u yanada ortishi ehtimoldan holi emas.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish 2011 yil va yaqin istiqbolda mamlakatimizni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirishning alohida ustuvor yo'nalishi va hech mubolag'asiz, eng muhim shartidir"¹. Shuningdek, bugungi kunda "Mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamiz bizning tashqi omillarga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valyuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda"².

Ishsizlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlarida mavjuddir. Bozor iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatlarda ham hech bo'lmasa joriy ishsizlik mavjud. Ishsizlikning asosiy negizi ishchi kuchi bozorida ishchi kuchi taklifining ish joylari sonidan ortiqchaligi bilan bog'liq.

Ishsizlik – bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, mamlakatda ishchi kuchining ish bilan bandligini oshirishda, ishsizlikni ijtimoiy

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanvar, -T.: O'zbekiston, 2011, 42-bet.

² I.A.Karimov. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. -T.: "O'zbekiston". 2015, 13-bet.

himoyalashda davlat siyosati, aholi daromadlarini oshirish, aholi turmush darajasini ko'tarish va ishchi kuchi resurslarining yangilanib borishini rag'batlantirishda ishchi kuchi bozorining ushbu xususiyatlarini chuqur ilmiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hukumatning hududiy darajadagi ishsizlikni kamaytirish va ishsizlikni ijtimoiy himoyalashda davlat siyosati ham strategik, ham taktik maqsadlarni o'z ichiga olishi kerak. Chunki, har bir hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat har xil bo'ladi va ushbu nuqtai-nazardan, ularning har biriga mos bandlik va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar qo'llash kerak. Buning uchun albatta hududlardagi boshqaruv organlarining ushbu sohaga yanada ko'proq e'tibor berishlarini ta'minlash zarur.

Shu bilan birga ishsizlik darajasi, uni hududiy va tarmoqlararo mavjudligi, uni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ishsizlikni ijtimoiy himoyalashda davlat siyosatini amalga oshirish davr talabidir.

Tadqiqotning ob'ekti – O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik va ishsizlikni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash holatlari tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida ish bilan bandlik va ishsizlikni kamaytirish tadbirlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uni barataraf etish yo'llari hamda uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashning nazariy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir .

Ana shu maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish;
- bozor tizimi sharoitida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini barataraf etish mexanizmini ko'rsatib berish;
- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining uslubiy asoslarini aniqlash;

- respublikada ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishda mehnat birjalarining roli ko'rsatib berish;
- respublikada yangi ish joylarini tashkil etishning ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishdagi o'rnini asoslash;
- respublikada samarali bandlik siyosati orqali mehnat bozori barqarorligini ta'minlashni tadqiq etish;
- aholini ishsizlikdan himoya qilishning bozor va davlat mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiya, takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etishda;
- bozor tizimi sharoitida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini barataraf etish mexanizmini aniqlashda;
- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining uslubiy asoslarini yaratishda;
- respublikada ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishda mehnat birjalarining rolini aniqlashda;
- aholini ishsizlikdan himoya qilishning bozor va davlat mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiya, takliflar ishlab chiqishda keng ko'lamda foydalanish mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uni bartaraf etish yo'llari, mamlakatda ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish masalalarini o'rganish, istiqbolini belgilash ahamiyati, uslublari va afzalliklari, ishsizlikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rne va roli klassik iqtisodchi-olimlar A.Smit, D.Rikardo, K.Makkonell, A.Marshall, A.Ouken, I.Fisher, D.Keyns va P.Samuelson kabi iqtisodchi olimlar asarlarida yoritilgan. Bozor munosabatlari sharoitida ishsizlik va ish bilan bandlikning o'ziga xos xususiyatlari hamda ishsizlikni ijtimoiy himoyalashda davlat siyosatining amaliy va nazariy masalalarini MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari R.Agabekyan,

G.Avagyan, N.Volgina, Yu.Odegov, L.Kostin, A.Jukov, V.Kulikova, V.Plaksya va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov, Q.Abduraxmonov, M.Mirzakarimova, G.Saidova, S.G'ulomov, O.Ata-Mirzaev, R.Ubaydullaeva, Sh.Xolmo'minov, L.Maksakova, N.Zokirova, D.Raximovalar tomonidan ham ushbu masalalar tadqiq etilgan³.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo'lib dialektik uslub, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va mazkur muammoni hal qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlari-ning ilmiy g'oyalar va yo'nalishlari asos qilib olingan.

Ilmiy tadqiqot jarayonida tadqiqot ob'ektini kompleks tahlil etish, ishsizlikni baholash, unga ishsizlikni yumshatish bo'yicha davlat ijtimoiy siyosatining ta'sir etuvchi omillarini o'rganish, miqdoriy va sifatli tahlilni yaxlitlikda qo'llash kabi metodologik talablardan kelib chiqildi. Tahlilda taqqosiy narxlarga asoslangan real ko'rsatkichlarni qo'llash, qiyoslash va dinamik ko'rsatkichlarga tayanish kabi usullardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ishda ilgari surilgan, asoslangan ilmiy nazariy g'oyalardan ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosidagi muallif ishlanmalari, prognoz ko'rsatkichlari va takliflari ijtimoiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqishda ko'llanilishi mumkin. Dissertatsiyada asoslangan fikr-mulohazalar, undagi amaliy ma'lumotlardan iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitishda, shu fan yuzasidan magistratura uchun maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyadagi ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

³ Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.-T.: "Fan va texnologiya", 2012. -389 b.
Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – T.: "TDIU" 2011, 420 b.; Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Aholini ish bilan bandligi.O'quv qo'llanma.-T.: "TDIU" 2011, 230 b.; Mirzakarimova M.M. Bandlikda ijtimoiy sheriklik. Monografiya. T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2013 y., 202 b.

- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etildi;
- bozor tizimi sharoitida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini barataraf etish mexanizmi ko'rsatib berildi;
- ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining uslubiy asoslari aniqlandi;
- respublikada ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishda mehnat birjalarining roli ko'rsatib berildi;
- respublikada yangi ish joylarini tashkil etishning ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishdagi o'rni asoslandi;
- respublikada samarali bandlik siyosati orqali mehnat bozori barqarorligini ta'minlash masalalari tadqiq etildi;
- aholini ishsizlikdan himoya qilishning bozor va davlat mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiya, takliflar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, 9 ta paragrafni qamrab olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan.

I-BOB. ISHSIZLIKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING AHAMIYATI

1.1. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari

Ishsizlik muammolarini etarli darajada tadqiq qilmasdan ishchi kuchi bozori va ijtimoiy mehnat munosabatlari tushunchalarini tasavvur etish qiyin hisoblanadi. Ishsizlik – bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Xususan, Prezidentimiz Islom Karimov ushbu masalada alohida to'xtalib, "... kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda qanchalik o'ta muhim rol o'ynashini albatta chuqur anglaymiz"⁴ – deya ta'kidlab o'tgan.

Darhaqiqat, jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ish joylarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o'sishidan orqada qolmasligi kerak. Qolaversa, jahon hamjamiyati bilan uyg'un holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlantirib borish lozim.

Ma'lumki, Xitoy va Hindiston mamlakatlari dunyo hamjamiyati davlatlari o'rtasida aholisining jadal o'sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz aholisi soni esa har yili o'rtacha 550-600 ming kishiga, mehnatga layoqatli ishchi kuchi resurslari soni esa 250-300 ming kishiga ko'paymoqda. Bunday vaziyat, o'z navbatida, ishchi kuchining ish bilan bandligini oshirish va ishsizlikni kamaytirish borasida uzluksiz ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish joylarini yaratish bo'yicha chora-

⁴ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlar va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalashlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2011 yil 21 yanvar / T.: O'zbekiston, 2011. 25 b.

tadbirlar ishlab chiqish zarur. Aks holda, ishsizlar sonining ortib borishi aholining turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtai-nazardan avvalambor, ishsizlik tushunchasi va uning mazmunini chuqurroq o'rganmog'imiz lozim. Chunki, mavjud muammolarning oldini olishdan oldin, uni muntazam va chuqur ilmiy o'rganish – davr talabidir.

Odatda, jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyati talablariga ko'ra ishlab chiqishadi. Xalqaro mehnat tashkilotining 13-konventsiyasi ta'rifiga binoan «ishsiz shaxslar» deganda – ish joylariga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi.

Masalan, AQShda so'nggi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan, so'nggi to'rt hafta davomida ishga joylashishga (bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash davlat xizmatiga murojat etish orqali) harakat qilgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar ishsiz shaxs deb e'tirof etiladilar⁵.

Yaponiyada ishsiz shaxs deb so'nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa, so'nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shu davr mobaynida ish qidirgan yoki kasalligi tufayli ish qidirish imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolar tushiniladi.

Ayrim malakatlarning qonun hujjatlariga binoan ishsiz deb, ishdan bo'shatilgan va mehnat stajiga ega bo'lganlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga binoan «... ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlash huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar etirof etiladi».

⁵Manba:Internet tarmog'ining <http://www.ilo.org> va <http://www.indexmundi.com> veb-saytlari ma'lumotlaridan olindi.

Ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun quyidagi to'rtta shart mavjud bo'lishi lozim.

Birinchi shart – fuqaro mehnatga qobiliyatli bo'lishi va amaldagi qonun hujatlariga binoan pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmasligi kerak. Huquqiy jihatdan mehnat qilish qobiliyatining quyi darajasi, «Mehnat kodeksi»ning 77-moddasiga muvofiq 16 yosh deb belgilangan;

Ikkinchi shart – fuqaro ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmasligi lozim;

Uchinchi shart – fuqaro ishlashga tayyor bo'lishi lozim. Fuqaroning ishlashga tayyor ekanligi, uning mahalliy mehnat organiga ish qidirib rasmiy murojaat qilishi, belgilangan muddatlarda mehnat organida qaytadan ro'yxatdan o'tib turishi va mehnat organlari tomonidan taklif qilingan maqbul ishni qabul qilish holatlari tasdiqlaydi;

To'rtinchi shart – fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim.

Ishsizlik tushunchasiga aniqlik kiritib, shuni ta'kidlash kerakki, ishsizlar – bular shunday kishilarki, ular ishchi kuchi bozorida o'z xizmatlarini faollik bilan taklif qiladilar, ish qidiradilar, bu narsa ish bilan bandlikning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda davlat tomonidan hisobga olinishi darkor. Ba'zan «ishsizlar» tushunchasining iqtisodiyotda ish bilan band bo'lmagan mehnatga qobiliyatli sifatida keng ma'noda talqin qilinishi maqbul emas, chunki u faol ish qiridayotganlarni ham, ish qidirmayotganlarni ham, shuningdek, haq to'lanadigan ish o'rnini egallash uchun da'vogarlik qilayotgan, lekin unga o'zining kasb-malaka jihatidan yaroqli, sog'lig'i, ichki uyushqoqligi bilan mos kelishiga yordam bermayotgan shaxslar ham kiritilardi. XMT sandartlariga ko'ra, ishsizlar sirasiga muayyan yoshga etgan, hisobot davri mobaynida ishsiz bo'lib, darhol ishga tushishga tayyor bo'lib turgan va faollik bilan ish qidirayotganlar kiritiladi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda ishsiz degan maqomga ega bo'lgan kishi quyidagi mezonlarga mos kelishi lozim:

- ishsizlar bandlik xizmati idoralarida ish qidiruvchi sifatida ro'yxatga olinishlari darkor;

- ishsiz deb hisoblanish uchun fuqaro faollik bilan ish qidirishi (odatda bandlikka ko'maklashuvchi organ xizmatiga murojaat qilishdan bir – to'rt hafta ilgari) kerak bo'ladi;

- ishsizlar maqomi va ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqi faqat ilgari ishlagan shaxslarga beriladi;

- ishsizlik ixtiyoriy ravishda boshlanmasligi lozim;

- ishsiz fuqaro o'zi uchun bandlik xizmati «mos keladi» deb hisoblagan ishga joylashish taklifini rad qilmasligi lozim;

- ishsizlar boshqa daromad manbalariga ega bo'lmasligi kerak;

- ishsiz fuqaro muayyan oylar mobaynida ishsizlik bo'yicha nafaqa olib turadi, shundan keyin nafaqaning miqdori kamaytirildi yoki uni to'lash mutlaqo to'xtatiladi⁶.

Ishsizlik darajasi – ishchi kuchi bozorining hozirgi paytdagi ahvoli haqida va unda muayyan vaqt mobaynida ro'y bergan o'zgarishlar to'g'risida tasavvur beradigan asosiy ko'rsatkichdir.

Ishsizlik darajasi (N) davrning boshi (yoki oxiri)dagi ahvolga ko'ra tegishli sanada ishsizlik maqomiga ega bo'lgan kishilar sonining (I) ana shu sanadagi iqtisodiy faol ishchi kuchi resurslari soniga (F) nisbati sifatida aniqlanadi:

$$N = I / F * 100\% \quad (1)$$

Ishsizlik darajasi ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri sifatida qoraladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlikning asosiy xususiyatlari:

- ish bilan to'liq va samarali bandlikni birga qo'shib olib borishni balansli holga keltirish;

⁶ Xolmo'minov Sh.R., Shoyusupova N.T., «Mehnat bozori iqtisodiyoti» O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2009. 70-71 betlar.

- mehnat qilishning ixtiyoriyligi va mehnat sohasida inson huquqlari hamda vazifalarining uyg'unlashuvi, xodimlarning ijtimoiy boqimandaligiga barham berish, munosib turmushni ta'minlaydigan ish topish imkoniyati uchun fuqaro bilan davlatning baravar ma'suliyati;

- mehnat samaradorligini oshirish yo'lida uni sarflash tarmoqlari, sohalar, kasblar va hududlar o'rtasida ishchi kuchining erkin harakati;

- yangicha mehnat sababi, tadbirkorlik va xodimlarning yuqori unumli mehnat qilishdan kuchli manfaatdorligi;

- bozor iqtisodiyotining salbiy oqibatlarini mehnatkashlar manfaatini ko'zlab, aniq maqsad bilan yumshatib borish.

Bu xususiyatlar ish bilan bandlikning yangi sifat xususiyatlarini belgilab beradi, ularning shakllanishiga tegishli ish bilan bandlik sifati mos kelishi lozim. Bunda ish bilan bandlik siyosatining maqsadlari ish bilan bandlikning normativ holatini aks ettirishi kerak, hozirgi kun muammolarini hal qilish bilan bunday holatga erishish mumkin.

Ish bilan bandlik siyosati bir necha darajaga egadir: umumdavlat(makrodaraja), mintaqaviy va mahalliy darajalar. Ish bilan bandlik siyosatining barcha darajalari yagona ish bilan bandlik kontseptsiyasi bilan birlashgan bo'ladi, bu kontseptsiya iqtisodiy rivojlanishining qabul qilingan tipini aks ettiradi.

Makrodarajadagi ish bilan bandlik siyosati ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikning asosiy xususiyatlarini shakllantirishga: fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalga oshirish va yuqori turmush darajasiga erishishning zarur sharti bo'lgan ish bilan to'liq bandlikni ta'minlashga qaratilgandir. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti boshqaruv usullarida iqtisodiyot samaradorligini oshirishga, xo'jalik yuritish sohasi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan ish o'rinlarini siqib chiqarishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining iste'mol talabini qondirish uchun ishchi kuchini qayta guruhlariga bo'lishga qaratilgandir. Bunday sharoitda ish bilan to'liq bandlikka ko'maklashish strategik maqsad bo'lib qoladi.

Eng asosiy taktik maqsad ish o'rinlariga bo'lgan talab va taklifning balanslashishidir. Bunga faqat ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansli bo'lishiga erishish shartlariga kompleks yondashuv bilan erishish mumkin. Ko'pincha bu muammoni hal qilishda ommaviy ishsizlikning oldini olishning zarur sharti bo'lgan ish o'rinlari tizimini rivojlantirishga e'tibor beriladi.

Ishchi kuchining ish o'rinlariga bo'lgan talabining pasayishiga, uning ayrim guruhlarining haddan tashqari ish bilan bandligiga barham berish, buning uchun bolali ayollar, ishni o'qish bilan qo'shib borayotgan yoshlarga, pensionerlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturini takomillashtirishga mehnat unumdorligini oshirishni jadallashtirish sharoitida ish bilan to'liq bandlikni ta'minlashning zarur sharti deb qaralishi kerak. Bu erda gap ishchi kuchi resurslarini mehnat sohasi, o'qish va ixtiyoriy bandlik sohalari o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qayta guruhlarga bo'lish haqida bormoqda.

Ish bilan bandlik sohasini demokratlashtirish, mehnat kishisini ozod qilish ish bilan bandlikning qattiq tartibga solingan shartlaridan voz kechish, mehnatga qobiliyatli aholining turli guruhlarini shaxsiy manfaatlari bilan kasb imkoniyatlarini baravarlashni bildiradi. Tadbirkorlik yoki bajaruvchilik faoliyati, davlat xizmatini yoki o'z tijorat ishlarini ma'qul ko'rish butun mehnatga qobiliyatli davr mobaynida yoki uning ayrim bosqichlarida ishlash, mehnat rejimining turli-tumanligi – bularning hammasi fuqarolarning xilma-xil kasbiy manfaatlari qondirish uchun zarurdir. Shu sababli ish bilan bandlik sharoitlarining xilma-xilligiga o'tish qanchalik faolroq amalga oshirilsa, yuqori unumli mehnatning yangicha mehnat sababi shunchalik tez paydo bo'ladi va ish bilan to'liq bandlikni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Ish bilan bandlikning moslashuvchanligi muammosida asosiy narsa – tanlashning ixtiyoriyligi va mehnatni kamroq vaqt ichida ishlab, durustgina ish haqi olish imkonini beradigan qilib tashkil etishdir. Hozircha bozor vositalari to'liq ishlashga erishilmagan ekan, davlatning muqobil mehnat rejimlarini rivojlantirishga ko'mak berishini kuchaytirish zarur bo'ladi.

Korxonalar bilan mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari mehnat rejimlari o'rtasida ishchi kuchi samarali kelib turishi uchun yaxshi o'ylab ko'rilgan daromadlar siyosati va ularning darajasini soliq tizimi bilan tartibga solib turish kerak bo'ladi. Ish haqining o'sishiga xo'jalik yuritish sub'ektlaridan cheklashlarni olib tashlanishi byudjetdan mablag' bilan ta'min etiladigan tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirishning puxta o'ylangan chora-tadbirlari bilan qo'shib olib borilishi kerak. Bu ma'lum darajada aqliy mehnatni (ilm – fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat) rag'batlantirish bilan bog'liqdir.

Butun iqtisodiyotni isloh qilishning va ish bilan bandlikning sifat jihatidan yangi holatini tarkib toptirishning eng keskin muammolaridan biri mehnat sababidir. Mehnat sababi mehnat sharoitlarining umumiy majmuiga va inson hayotiga, xususan, insonning hozir ishlayotganidan ham samaraliroq ishlay olish qobiliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, mehnatga haq to'lash va butun taqsimlash siyosatini isloh qilishdan tashqari xodimni yaxshi ishlashga rag'batlantirish, jadal va yanada samaraliroq mehnat qilish qobiliyati kasb malakasi etarli darajada yuqori bo'lgan va ishchanlik qobiliyati rivojlangan sharoitdagina barqaror bo'lishi mumkin. Insonning sog'ligi va uning ishchanlik qobiliyatini tiklash sharoitlari ham ma'lum darajada ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning sog'liq nuqtai-nazaridan ishchi kuchining sifatiga bo'lgan talablari ortib boradi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqur qayta qurish sharoitlarida mehnat sabablarida birinchi o'ringa fuqarolarning ijtimoiy kayfiyati chiqarilmoqdaki, bunday kayfiyat deganda hozirgi vaqtda turmush sharoitining haqiqatda yaxshilanishiga emas, balki ijobiy siljishlarning muqarrarligiga, tanlangan islohotlar yo'lining to'g'riligiga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning adolatli ekanligiga ishonchning mavjudligi ham tushuniladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoya haqida ko'p gapirilmoqda, lekin u ko'pincha tor ma'noda, davlatning ishsizlarga, ayniqsa, aholining ijtimoiy eng nochor qismiga yordami tariqasida tushuniladi.

Biroq, ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, uning oldini olish tizimi to'g'risida g'amxo'rlik qilish jamiyat uchun e'tiborli tomonlardan biri hisoblanadi. Bu tadbirlar orasida ancha muhimi jamiyatning har bir a'zosi uchun ish bilan bandlik sohasidagi o'z o'rnini haqiqatan ham erkin tanlashga, ish kuchining ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini oshirishga, uning yuksak raqobatbardoshligini shakllantirishga davlatning har tomonlama yordam ko'rsatishidir. Bularning hammasi ish bilan bandlik sohasini demokratlashga olib keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishni talab qiladi. Avvalo, quyidagilar zarur: hudud bo'yicha ko'chib yurish erkinligini, kasbni o'zgartirish mumkinligiga odamlarning ishonchini, aqliy mehnat va xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatning nufuzini oshirish; muqobil mehnat rejimlarini rivojlantirish va hokazolar talab qilinadi.

1.2. Bozor tizimi sharoitida ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini barataraf etish mexanizmi

Ishsizlik darajasining tabiiy miqdori qancha bo'lishi mumkin, degan masala ustida iqtisodchi olimlar juda ko'p fikrlar bildiradilar, lekin biror mamlakatda uning aniq miqdori belgilangan emas. Masalan, AQShda ishsizlar sonining tabiiy darajasi 1960 yillarda 4-6% ga ko'tarildi⁷. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan davrdagi ishsizlik darajasi tabiiy me'yoriy holat deb ifodalanib, ishlab chiqarishning potentsial imkoniyati bilan bog'liqlikda bo'ladi. Agar bandlik yuqori bo'lib, ishlab chiqarishda ham ko'p bo'lsa, spiralsimon inflyatsiya yuzaga keladi.

Ishsizlik darajasi doimo noldan yuqori bo'ladi, chunki ixtiyoriy va tarkibiy ishsizlik u yoki bu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Lekin ishsizlikning tabiiy darajasi inflyatsiyaning kuchayishini to'xtatib turadi.

Iqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar

⁷ Genkin B.M. *Ekonomika i sotsiologiya truda: Uchebnik dlya vuzov.* – 4–e izd., dop. – M: NORMA, 2009. – 294 s

ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi⁸.

Ishchi kuchi resurslarini ish bilan bandligi tarkibi shakllanishida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rnini ham katta. Ishchi kuchini samarali ravishda ish bilan ta'minlash tizimini rivojlanishi zahirida ishlab chiqarishining o'sishi va har bir band odamning samarali ishlashining o'sishi yotadi. Biroq, ishchilarning tajriba va mahorat darajasini oshirmay turib mehnat unumdorligini oshirib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotdagi mahoratli ishchilarning qanchalik ko'p bo'lishi, shunchalik mehnat unumdorligini va turli xizmat va mahsulotlarning ko'p bo'lishini anglatadi. Iqtisodiyotning rivojlanishini aniqlovchi asosiy omil bugungi kunda ishchi kuchining sifatidir.

Ishsizlik, mehnat munosabatlari, ularni davlat tomonidan tartibga solish, oldini olish muammolarini o'rganishning tarixiy ildizlari XVIII asrga borib taqaladi. Ishsizlik va uni davlat tomonidan tartibga solish masalasini birinchi bo'lib 1894 yilda AQShning Ogayo shtatidagi tadbirkor Djekob Koksi ko'tarib, davlat tomonidan bandlikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni qo'llashni taklif qildi. Uning rejasida davlat ishsizlarni himoya qilishi va ma'lum miqdorda nafaqa berishi kerak edi. Lekin uning fikri AQSh Kongressi tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Fikri ma'qullanmagan Koksi 1894 yil 25 martda tarixda birinchi marta ishsizlardan iborat "Koksi Armiyasi"ni tuzadi va Vashingtonga yo'l oladi. Lekin bu harakat davlat tomonidan bostiriladi. Faqatgina, 1930 yillarga kelib buyuk inqirozdan keyingina davlat bu masalaga jiddiy qaraydi va ishsizlikka qarshi, bandlikni qo'llab quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqadi.

Chunki, ishsizlik darajasi shu yillari 15 foizdan ham oshib ketgan edi. 2009-2010 yillarga kelib AQShda ishsizlik darajasi 5,0 foizni tashkil etdi, ish izlash muddati qisqardi. Bu mamlakatda kishilar ish o'rinlarini yo'qotsa, o'zlari faol ish qidirishga harakat qiladilar. Amerikaning har bir shtatida ishchi kuchi bandligi va ishsizlarga yordam bo'yicha o'zining Qonunlari amal qiladi. Ular ishsizlik nafaqalarini Federal va shtat fondlaridan to'laydilar.

⁸Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 436 bet.

Hozirgi kunda tajribali mutaxassislarga, ularning mahoratini oshirishga sarflanadigan xarajatlar butunligicha ishchi kuchiga xarajatlar sifatida qaralmoqda. Unga to'la asos bilan ishchilar sog'lig'ini ta'minlashga sarflanadigan xarajatlar ham kirib ketadi. Kuzatishlarga qaraganda, AQShdagi ishchilarni tajribali mutaxassis ishchilar guruhiga kiritish uchun ishchi kamida o'rta maktabda tahsil olgan bo'lishi kerak. Yana ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, 30 ta ommalashib borayotgan mutaxassisliklar orasida 2/3 qismidan ko'prog'i hamda shu 30 ta kasb egalarining yarmi 1990 yillarda o'rta ta'lim muassasalarida tahsil olgan.

T.Shul'ts AQShdagi ishchi kuchi zahiralari investitsiyasiga son jihatdan birinchilardan bo'lib baho bergan. Oxirgi 40 yil ichida ta'limga investitsiya kiritish 20 barobarga oshgan va 1997 yilda byudjetdan ta'limga ajratilgan sarflar 450 mlrd. dollar atrofida bo'lgan. Mutaxassislarning malakasi va tajribasini oshirishga qaratilgan investitsiya jismoniy kapitalga kiritilgan investitsiyadan 3 barobarga ko'p bo'lgan (440 mlrd. dollar). Bundan tashqari, ishchi kuchi resurslariga byudjetdan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minotga jami 1 trln. dollarga yaqin mablag' sarflangan⁹.

Ishchi kuchiga bo'lgan investitsiya hajmining o'sishi YaIM ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish bilan chambarchas bog'liq. AQSh iqtisodchilarining hisob kitobiga qaraganda, 1890 yilda YaIM ning 50% - xom-ashyo, mineral va energetik zahiralarga to'g'ri kelgan va 100 yildan keyin ularning YaIMdagi ulushi 10,0% dan ham oshmagan.

Ilmiy-texnik taraqqiyot XX asrda ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishni samarali oshirishining asosiy manbai bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy-texnik taraqqiyot u yoki bu ko'rinishida mehnat unumdorligining o'sishida namoyon bo'ladi. Bu omillarning ta'sirini AQSh milliy daromadi o'sirishining uchdan biri ilmiy-texnik taraqqiyot omiliga to'g'ri kelganligi bilan tushuntirish mumkin. Evropaning rivojlangan mamlakatlari va Yaponiya urushdan keyingi 10

⁹ Manba: Internet tarmog'ining <http://www.ilo.org> va <http://www.indexmundi.com> veb-saytlari ma'lumotlaridan olindi

yillikda iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnik taraqqiyot hisobiga, mehnat va kapitalni samarali joriy qilish natijasida erishgan.

Aksincha, XX asrning ikkinchi yarmi tarixida rivojlangan mamlakatlarda tabiiy boyliklarni, ishchi kuchini qo'shimcha ravishda jalb qilish natijasida davomli iqtisodiy o'sishga doir misollarni uchratmaymiz. Qanchalik miqdorda u yoki bu omilni ko'proq kiritilishi, shunchalik uning taqdirlanishini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu ish bilan bandlik tarkibining transformatsiyasidir.

Mehnatga nisbatan mukofot sifatida ish haqi belgilanadi. Yuqori darajadagi ish haqi firmalar faoliyatida ayni resursning ijobiy ta'sirini uyg'otadi va bu ish xaqi minimal mehnat xarajatlari bilan ishlashga olib keladi. Demak, shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, ishchi kuchini tejash, ish xaqini tejash degani emas. Shuni alohida qayd etish lozimki, o'tish davri iqtisodiyoti sharoitida qator mamlakatlarda ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligi tarkibi o'zgarmoqda. O'tish davri iqtisodiyoti rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan iqtisodiy tizimdir. Bunday tizimda iqtisodiy o'sish barqaror yoki barqaror bo'lmasligi mumkin. Misol tariqasida, Xitoyda so'nggi 20 yil ichida iqtisodiy pasayish kuzatilmadi va bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshdi. Ammo, «shok terapiyasini» qo'llagan mamlakatlarda iqtisodiy pasayish yuz berdi, tarkibiy o'zgarishlar esa iqtisodiy pasayish sharoitida amalga oshdi. Demak, o'tish davri iqtisodiyotida ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandlik tarkibining shakllanishi iqtisodiy o'sish hisobiga emas, balki ishlab chiqarishning mutlaq yangi sharoitga moslashishi bilan tavsiflanadi¹⁰.

Shchvetsiyada ishchi kuchi bozorini tartibga solishda faol siyosatga asoslanadi. Bu mamlakatda ishsizlik darajasi 1,4 foizni tashkil etadi. Xodimlarni qayta malakasini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga boshqa mamlakatlarga qaraganda eng ko'p harajat sarflanadi. Yiliga byudjet mablag'larining 6-8 foizi ishchi kuchi bozoridagi faol (70 %) va passiv (30 %) siyosat uchun sarflanadi¹¹.

Bu mamlakat ishchi kuchi bozoridagi siyosat:

¹⁰ Manba: Internet tarmog'ining <http://www.ilo.org> va <http://www.indexmundi.com> veb-saytlari ma'lumotlari

- ishsizlarni ishchi kuchi bozoriga qaytarish;
- iqtisodiyot sohalari bo'yicha ishchi kuchini qayta taqsimlash;
- mehnatga joylasha olmagan shaxslarni ijtimoiy himoyasini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Ishsizlik muddati 1 yilgacha bo'lsa- qisqa, 1 yildan oshsa uzoq muddatli hisoblanadi. Mehnat borasidagi siyosatni Mehnat vazirligi amalga oshiradi. Vazirlikda markaziy ishchi kuchi bozorini boshqarish boshqarmasi 24 ta mehnat bo'yicha guberniya qo'mitalari, 330 ta ish bilan ta'minlash shahar byurolari faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Bu singari bandlik xizmatlari "Ish bilan ta'minlash" Qonuni bilan mustahkamlangan, xususiy bandlik xizmatlarini tashkil etish ta'qiqlangan.

Shchvetsiyada 3 yilda bir marta mamlakat miqyosida ishchi kuchi bozori muammolari bashorat qilinadi. Bashoratning asosiy maqsadi, resurslardan samarali foydalanish, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyotni muvofiqlashtirish, har bir ish izlayotgan shaxsga ish joyini taqdim etishda eng avvalo yoshlar, ayollar va aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini inobatga olishdan iborat.

Shchvetsiya ishchi kuchi bozoridagi olib borilayotgan faol siyosat quyidagi ikki elementni o'z ichiga oladi:

- birinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish va unga xodimlarni tayorlash, qayta o'kitish markazlarini yaratishni rag'batlantirish:

- iqtisodiy ko'rsatkichlari past bo'lsada, ijtimoiy zarur xizmatlarni ta'minlovchi sektorlarda ishchi kuchi resurslarini ish bilan bandligining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashdir.

Ishchi kuchi bozorini tartibga solish borasida Finlyandiya tajribasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu mamlakatda ishsizlik davomiyligi o'rtacha 15 hafta davom etadi. Ishsizlarning asosiy qismini yoshlar va ayollar tashkil etadi. 1988 yilda qabul qilingan "Bandlik to'g'risida"gi Qonun bandlik jarayonini tartibga soluvchi asosiy qonun hisoblanadi. Finlyandiyada 2000 yillarga kelib yoshlar ishsizligi kuchayganligi bois, bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Unga ko'ra 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ishsizlik muddati 3

oydan, 25 yoshlilarning uzuliksiz ishsizligi 1 yildan oshmasligi lozim. Ishchi kuchi resurslari markazi mamlakat bo'yicha barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, faol ish qidiruvchilarni ro'yxatga oladi. Ushbu markaz xizmatidan yiliga 500 ming kishi foydalanadi. Ular tomonidan "Ishchi kuchi bozori" maxsus haftanomasi bepul nashr etiladi.

Ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo'shimcha ish joylarini yaratish, ularni ishga tushirish, aholining tabiiy o'sishidan orqada qolmasligi kerak. Qolaversa, jahon hamjamiyati bilan uyg'un holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlantirib borish lozim.

Ishsizlar – bular shunday kishilarki, ular ishchi kuchi bozorida o'z xizmatlarini faollik bilan taklif qiladilar, ish qidiradilar, bu narsa ish bilan bandlikning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda davlat tomonidan hisobga olinishi darkor.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sish tarixi aynan Keynes qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga olingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib boradi, ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Fikrimizcha, bu hodisalarni faqat statistik xatoliklar va ishsizlik maqomini berish shartlarining murakkablashuvi bilan izohlab bo'lmaydi. Ko'rinishidan yaxshi bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan ish bilan bandlikning kamayishini ikkita sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, yashirin ishsizlikning yuqori darajasi saqlanganligi, u o'z potentsialini hatto ayrim barqarorlik sharoitlarida ham ochiq bozorga chiqarib turadi. Ikkinchidan, yashirin ish bilan bandlikning ko'payishi, u ishchi kuchi va ishsizlarning sezilarli qismini ochiq ishchi kuchi bozoridan tortib turadi.

Ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligi tarkibi shakllanishida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'ri ham katta. Ishchi kuchini samarali ravishda ish bilan ta'minlash tizimini rivojlanishi zahirida ishlab chiqarishining o'sishi va har bir band odamning samarali ishlashining o'sishi yotadi. Biroq, ishchilarning tajriba va mahorat darajasini oshirmay turib mehnat unumdorligini oshirib bo'lmaydi.

1.3.Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Iqtisodchi olimlar o'rtasida ommaviy ishsizlikning haqiqiy sabablari qandayligi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud. Ma'lumki, J.M.Keyns «...ishsizlikning davosi sifatida ish haqini pasaytirish g'oyasini qat'iy inkor etib, o'ziga investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tashqari iste'mol xarajatlarini – bunda ham so'nggi – umumiy talabning asosiy qismini ham qamrab oladigan umumiy talabdan kelib chiqadi»¹².

Fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sishi tarixi aynan Keynes qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga olingandan boshlab, ishsizlik darajasi ma'lum darajada muntazam ortib boradi, ishga joylashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ish bilan bandlikning keskin kamayishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining kamayishi), inflyatsiya hamda xo'jalik yuritishning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari) etarlicha tez o'smaganligi tufayli ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvol yomonlashuvi natijasida yuzaga keladi. Bularning hammasi, tabiiyki, umumiy talab hajmida salbiy aks etadi: davlat ta'siri qisqaradi, investitsiya faoliyati sustlashadi, iste'mol xarajatlari esa

¹² Rofe A.I., Zbishko B.G., Ishin V.V. Rinok truda, zanyatost naseleniya, ekonomika resursov dlya truda. – M.: Ekonomika, 2009. – 101 s.

inflyatsiya ta'sirida turmush darajasining yomonlashuvi tufayli birmuncha kamayadi.

Demak, O'zbekistonda ishsizlik o'sishining asosiy sababi – eng avvalo ishlab chiqarishning qisqarishidir. Iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan ishsizlik o'rtasidagi aloqa uzviy bog'liq ko'rsatkichlardir.

Qoidaga ko'ra, G'arb mamlakatlari iqtisodchilari iqtisodiy o'sish sur'atlarini ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligining o'sish sur'atlari bilan, tanazzulni esa ishsizlik darajasining o'sishi bilan bog'laydilar. Haqiqatdan ham, industrial turdagi me'yorida faoliyat ko'rsatayotgan bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish doimo tarmoqlarning rivojlanishi va kengayishini, demak, ish bilan bandlikning ortishini anglatadi. Shunday bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday bog'liqlik ko'zga ochiq tashlanmaydi. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning tez o'sishi ish bilan bandlikning muvofiq kengayishini keltirib chiqarmadi. Iqtisodchilar bu hodisani sanoatdagi o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan urbanizatsiya sur'atlari hamda qishloqdan shaharga ko'chib kelayotgan aholi malakasining pastligida, deb izohlaydilar¹³.

Ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandlik dinamikasi, YaIM bilan ishsizlik o'rtasidagi bevosita aloqaning tasdiqlanmasligi dastlabki qarashda mantiqan zid hodisadir. Ikkita dalil kishini hayratga soladi: birinchidan, ishsizlikni YaIMning o'sishiga qiyosan ilgarilovchi qisqarishi; ikkinchidan, ish bilan bandlikning kamayishi bilan birga ishsizlikning qisqarishi.

Fikrimizcha, bu hodisalarni faqat statistik xatoliklar va ishsizlik maqomini berish shartlarining murakkablashuvi bilan izohlab bo'lmaydi. Ko'rinishidan yaxshi bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan ish bilan bandlikning kamayishini ikkita sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, yashirin ishsizlikning yuqori darajasi saqlanganligi, u o'z imkoniyatlarini hatto ayrim barqarorlik sharoitlarida ham ochiq bozorga chiqarib turadi.

¹³ Xolmo'minov Sh.R., Shoyusupova N.T. «Mehnat bozori iqtisodiyoti» (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2009. 72-75 b.

Ikkinchidan, yashirin ish bilan bandlikning ko'payishi, u ishchi kuchi va ishsizlarning sezilarli qismini ochiq ishchi kuchi bozoridan tortib turadi.

Respublikamizda ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra quyidagi asosiy turlari ko'proq uchraydi¹⁴:

bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik friksion (oraliq) ishsizlik deyiladi. Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko'chib o'tish, ishining mazmuni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish va boshqalar)ga ko'ra o'z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq, bir ishdan bo'shab, boshqa biriga joylashgunga qadar orada ma'lum vaqt o'tadi (ba'zi adabiyotlarda bu muddat 1 oydan 3 oygacha davom etishi ko'rsatiladi);

yangi kasb va mutaxassislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb ataladi. Fan-texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qo'llanishi natijasida ba'zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo'lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o'sadi. Natijada, ba'zi bir kasb yoki mutaxassislik turlaridagi ishchilarga talabning qisqarishi yoki umuman yo'qolishi ularning o'z kasb va mutaxassisliklarini o'zgartirish yoki shunday kasblarga talab saqlanib qolgan joylarga ko'chib o'tishga majbur qilib qo'yadi;

friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi;

tsiklik ishsizlik – iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bunda o'z tovar va xizmatlariga nisbatan talabning qisqarishiga duch kelgan tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini kamaytirish maqsadida ishchilarni ishdan bo'shata boshlaydilar;

institutsional ishsizlik ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning etarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi;

¹⁴ Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 433-434 betlar.

texnologik ishsizlik ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularning ichida asosiylari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyalarni qo'llash hisoblanadi;

hududiy ishsizlik muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatdagi bir qator omillar ta'sirida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi;

yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik xos. Iqtisodiyot rivojlanishi darajasining pasayishi korxonalardagi ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Biroq, korxona egalari o'z ishchilarini birdaniga ishdan bo'shata olmaydilar. Buning natijasida ishchilarning ma'lum qismi rasman ish bilan band bo'lsalarda, amalda to'liq holda ishlamaydilar;

turg'un ishsizlik mehnatga layoqatli ishchilarning ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.

Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, sabablari va turlari nazariy asoslanishi ishsizlik holatining mezonlari va ko'rsakichlari ochib berilishini taqozo qiladi. Chunki ishsizlikning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari mehnatga layoqatli ishchi kuchi resurslari oqilona bandligini shakllantirishni tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir.

Ishsizlik holatining demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; ishchi kuchi taklifini kamaytirish; ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol ishchi kuchi resurslarining mehnatda ishtirokini oshirish; kadrlar malakasi, safarbarligi va raqobatbardoshligini oshirish; aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ishsizlik ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning hajmi; mahalliy va

jalb etilgan ishchi kuchi resurslarining soni; ishchi kuchining migratsion oqimi; ishchi kuchining kapital va energiya bilan qurollanishi; ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining hajmi; qishloq xo'jaligi har bir xodimining er yuklanmasi; o'rtacha yillik ish haqi; har bir aholining uy-joy bilan ta'minlanishi; ishchi kuchi resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; sanoat korxonalaridagi asosiy kapitallardan foydalanishning smenalik koeffitsienti; ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori; mehnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi; mulkchilikning turli shakllari va mehnatni tashkil qilishning samaradorligi va hokazolar.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ko'rsatkichlardan ishsizlik holatini tahlil qilish va istiqbollashtirishda hamda uning turli ko'rinishlari miqdorlarini aniqlashda foydalanish mumkin.

Ishchi kuchi resurslarining prognoz balansi bo'lajak davr uchun (maqsadlarga bog'liq holda – 1 yilga, 5, 10 yilga va hokazo) Iqtisodiyot vazirligi tomonidan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Ishchi kuchi resurslarining prognoz balansini ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinadi:

ishga joylashtirishga muhtoj bo'lgan mehnat bilan band bo'lmagan aholining (ishsizlarning) amaldagi va kutilayotgan soni;

ishlayotganlar sonining belgilangan parametrlari, ish bilan bandlikning o'sishi va investitsiya dasturlarini, tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning mo'ljallangan natijalari munosabati bilan ish bilan bandlikning o'sishi va uning tarkibiy o'zgarishi;

ishchi kuchi resurslari sonini va iqtisodiy faol bo'lmagan aholi turli toifalarini (o'quvchilar, bola parvarishi bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar va boshqalar) shakllantiradigan kelgusidagi demografik jarayonlar dinamikasi.

Ishchi kuchi resurslarining prognoz balansidan mintaqalarning demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi ish o'rinlari tashkil etishga ehtiyojlarni

va kelgusida aholini ish bilan ta'minlashning hududiy dasturlari parametrlarini aniqlashda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladi.

Ishchi kuchi resurslaridan foydalanish holati balansda yaqqol ko'rinadi. Foydalanish deganda ishchi kuchi resurslarining taqsimlanishi va ulardan iqtisodiyotda foydalanish samaradorligi tushuniladi. «Ishchi kuchi resurslarini taqsimlash» deganda ishchi kuchi resurslarining iqtisodiyotda ishlaydigan qismlari va ishlamaydigan qismlari tushuniladi. Ishchi kuchi resurslarini taqsimlashni iqtisodiyot tarmoqlari, iqtisodiyot sektorlari, mehnat turlari, mehnat rejimi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar miqyosida tushunish mumkin.

Ishchi kuchining ish bilan bandligini tahlil qilishga ikki tomonlama yondashish mumkin:

hududlar bo'yicha ish bilan bandligi holati tahlili;

tarmoqlar bo'yicha ish bilan bandligi holati tahlili.

Ishchi kuchi resurslaridan foydalanishni tahlil qilish turlaridan biri mamlakat hududi bo'yicha tahlil qilish bo'lib, u orqali muayyan foydali axborotlar va natijalarga ega bo'linadi. Respublika hududi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va geografik jihatdan bir biridan katta farq qiladi. Bu farqlar hududlardagi ishchi kuchi resurslarining o'ziga xos shakllanishi va ulardan foydalanishda o'z ifodasini topadi. Ishchi kuchi resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishning mintaqaviy xususiyati, avvalo, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri bilan bog'liqdir.

Bandlikning tarmoqlardagi holatini tahlil qilish iqtisodiyotning tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqadi. Tarmoqlarning rivojlanganligi, iqtisodiyotda tutgan o'rni, YaIMdagi ulushi kabilar undagi bandlik holatini belgilab beradi. Bundan tashqari tarmoqlardagi bandlikka demografik, geografik, iqtisodiy omillar ham ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ish bilan bandlikning har ikkala holatini tahlil qilish mamlakatda ishchi kuchining ish bilan bandligi holati haqidagi tushunchalar, xulosalar va natijalarni yanada aniqlashtiradi. Shuningdek, bu borada amalga

oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar va islohotlarni aniq yo'naltirish imkonini beradi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

II-BOB. O'zbekistonda ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasining qiyosiy taxlili

2.1. Respublikada ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirishda mehnat birjalarining roli

Agar bozor erkin, o'z-o'zidan tashkil topsa, unumdorlikni va daromadlarni eng yuqori darajaga etkazish imkonini beradi, biroq ijtimoiy adolat va hamma uchun ish o'rinlariga teng imkoniyatlarni kafolatlash uchun bozor ijtimoiy totuvlikni saqlab qolishdan manfaatdor bo'lgan muayyan tashkilotlar tomonidan tartibga solib turilishi lozim. Buni Prezidentimiz I.Karimov o'z asarida shunday baholaydi, "O'zbekistonda qabul qilingan islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eang avvalo, "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni biz chetdan turib joiy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik"¹⁵. Xuddi ana shunday tartibga soluvchi institut sifatida birinchi navbatda davlatning o'zi

¹⁵ Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A. Karimov. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. -56b. 7-bet.

maydonga chiqadi, u ishchi kuchi bozorini tartibga solish uchun muayyan strategiyani ishlab chiqadi.

Xususan, shaxsning fuqarolik erkinligi xodimga mehnatni qo'llash sohasi, undan foydalanish sharoitlari va ish haqini erkin tanlash xuquqini rasmiy beradi. Erkin sub'ekt sifatida u shaxsiy mulkchilik va o'zining ishchi kuchiga egalik xuquqiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ishlab chiqarish va ijodiy mehnat uchun o'z qobiliyatlariga egalik qilish va qonunchilik man qilmaydigan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi berilgan. Mehnatga har qanday shaklda ma'muriy majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi. Kishilarning ixtiyoriy band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi".¹⁶ Quyidagi jadvalda mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolar soni va salmog'i ko'rsatilgan. Unda ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolar soni 2010 yilda 2006 yilga nisbatan 19,1 ming kishiga kamayganligi, yoki 30 %ga tushganligini aytib o'tish mumkin (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolar soni¹⁷ (ming kishi hisobida)*

	2006	2007	2008	2009	2010	2006 yilga nisbatan 2010 yilda % da
Ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolar soni	561,9	557,4	623,3	658,2	669,5	119,1
Rasman ro'yxatga olingan ishsiz fuqarolar soni	27,7	25,5	23,2	20,1	16,2	58,4
<i>shulardan:</i>						
ayollar	16,2	15,8	14,2	13,4	12,1	74,7
qishloq joylarida istiqomat qilayotganlar	19,5	18,4	16,0	14,9	12,8	65,6
ishsizlik nafaqasini olayotganlar	15,7	13,8	11,4	10,9	8,1	51,6
jamoat ishlarida ishtirok etayotganlar	1,9	1,9	5,0	8,2	9,5	500

Rasman ro'yxatga olingan ishsiz fuqarolar salmog'i esa 58,4%gacha kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Buni aholi ish bilan bandligini oshirish

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1998.

¹⁷ Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

bo'yicha qilinayotgan ishlar, vazifalarning, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini kengaytirish va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar mahsuli deya ta'kidlash mumkin.

2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilganini katta mamnuniyat bilan qayd etishimiz lozim. Bu yangi tashkil qilingan umumiy ish o'rinlarining 600 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo'jaliklariga, 210 mingdan ortig'i kasanachilik sohasiga to'g'ri keladi.¹⁸

Keyingi 2006-2010 yillar ichida mamlakat umumiy aholisi sonida mehnatga layoqatli aholining ulushi muntazam ortib bormoqda. Mehnatga layoqatli aholi darajasi 2010 yilda 61,0 foizni tashkil etdi. 2006 yilda bu ko'rsatkich 57,5 foiz bo'lgan edi. Bu davrda mehnatga layoqatli aholining salmoqli ulushi ortdi. O'tish davrida ishchi kuchi bozoriga demografik ta'sirdan tashqari avval sanoat korxonalarida, so'nggi paytlarda qishloq xo'jaligi sektorida ilgari jamoa va shirkat xo'jaliklarini qayta o'zgartirish natijasida ish o'rinlari qisqarib borayotgani ham o'z ta'sirini ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida aholining ish bilan bandlik darajasi 2006 yilda 70,3 foizdan 2010 yilda 67,4 foizgacha kamaydi. 2006 yildan boshlab, iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashdi, biroq bandlik sohasida sust o'zgarishlar kuzatildi. Buni qisman ma'lum darajada mehnat unumdorligining oshishi va ayniqsa qishloq xo'jaligida unumsiz ish bilan bandlikning kamayishiga asoslangan iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan izohlash mumkin (2.1.2-jadval).

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili ishchi kuchi bozorini to'ldirish ikki asosiy sabab hisobiga amalga oshirilishi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi. Ulardan biri mamlakat iqtisodida band bo'lgan ortiqcha ishchilarni ozod qilish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlash zaruratidan iborat. Ular orasida shu kunlarda muhim bo'lgan omil ortiqcha ishchilarning ozod qilinishidir.

¹⁸ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlar va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalashlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2011 yil 21 yanvar / T.: O'zbekiston, 2011. 14 b.

Shu o'rinda ish bilan bandlikning tarmoq tarkibini tahlil qilish muhimdir. Tahlildan shuni ko'rish mumkinki, mamlakatda sanoatdagi bandlik ko'rsatkichining past darajada ekanligini va keyingi yillarda bu ko'rsatkichning yanada pasayishi tendentsiyasi kuzatilayotganligini ta'kidlash zarur. Shu bilan birga qishloq xo'jaligidagi bandlik ham pasayib borgan. Aksincha, savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ida band bo'lganlarning ulushi ortgan. Shu bilan birga, 2006-2010 yillarda kommunal va maishiy sohalarida bandlikni oshganligini ko'rish mumkin. Bu esa respublikada ishlab chiqarish va hududiy bandlik dasturlarining to'la amal qilganligini ko'rsatadi.

2.1.2-jadval

O'zbekistonda ishchi kuchi resurslarining o'sish dinamikasi va ish bilan bandlik ko'rsatkichlari¹⁹

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Y i l l a r					2006 yilga nisbatan 2010 yilda %
			2006	2007	2008	2009	2010	
1.	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi	mln. kishi	14,8	15,1	15,6	16,8	17,2	116,2
2.	Jami aholiga nisbatan	%	57,5	58,3	59,1	60	61	106,1
3.	Bandlar soni	mln. kishi	10,4	10,7	11,0	11,3	11,6	111,5
4.	Bandlik darajasi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbatan	%	70,3	70,9	70,5	67,3	67,4	95,9

Bu dasturda asosan respublikamiz qishloq xo'jaligida 2 mln. kishidan ortiqroq ishchi kuchi ortiqcha band ekanligi, ularni iqtisodiyotning boshqa sohalariga ta'sir etmagan holda oqib o'tishini ta'minlash, xususan qishloqlarda xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalar tashkil etish bilan ortiqcha ishchi kuchiga va ishlashni hohlovchilarga ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 23 martdagi № 308 sonli "Shaxsiy yordamchi dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham aholining ish bilan band bo'lmagan qismini bandligini ta'minlashga

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasi ma'lumotlari asosida hisoblandi.

qaratilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, qishloq xo'jaligi sohasidagi bandlik darajasining haddan tashqari yuqoriligi bu tarmoqda mehnat unumdorligining va samaradorligining nihoyatda pastligini belgilovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarning pastligi esa o'z navbatida ortiqcha ishchi kuchining mavjudligidan dalolat beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari o'rtasidagi nisbat ham iqtisodiy tarkibning qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. O'zbekistonda ham rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari, shuningdek, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmog'i o'rtasidagi nisbatni tarkib toptirish ancha vaqt talab etadi. Buning uchun bir qancha chora tadbirlarni amalga oshirish zarur buladi. Chunki bizning Respublikamizda va uning viloyatlari iqtisodida qishloq xo'jaligi alohida o'rin tutadi va moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan mehnat resurslarining kattagina qismi agrar sektorga to'g'ri keladi. Shuningek aholi bandligi tizimidagi o'zgarishlarga xos bo'lgan boshqa bir an'analar ham vujudga keldi. Ya'ni, yuridik shaxs maqomini olmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar hamda dehqon xo'jaliklarida o'zini-o'zi ish bilan band qiluvchilar sonining sezilarli darajada o'sishi ko'zga tashlandi.

Bularning amalga oshirilishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 23 martdagi №67 sonli "2006-2010 yillarda shaxsiy yordamchi dexqon va fermer xo'jaliklari chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi sabab bo'ldi. Umuman bandlik tizimidagi bu kabi barcha muhim o'zgarishlar bozor islohotlarini amalga oshirish paytida ishchi kuchi bozorida sodir bo'layotgan jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi.

Aholi ish bilan bandligini iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimotini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda iqtisodiyotning nodavlat sektorida bandlikning yuqori ekanligi biz uchun tabiiy hol.

2006-2010 yillar oralig'ida ish bilan band bo'lgan aholini iqtisodiy sektorlarda taqsimoti ortganligini ko'rsatmoqda. Agar biz davlat va nodavlat sektorlarini o'rganadigan bo'lsak, davlat sektorida ish bilan band aholi salmog'i yildan yilga pasayib bormoqda (2006 yilda 22,8%, 2010 yilda 20,9 foizga pasaydi). Iqtisodiyotning nodavlat sektorida bu ko'rsatkich 77,2% dan 79,1%ga ortgan (2.1.3-jadval).

2.1.3-jadval

Ish bilan band bo'lgan aholining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimoti²⁰

	2006		2007		2008		2009		2010	
	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%
Jami iqtisodiyotda band bo'lganlar	10196	100	10467	100	11035	100	11328	100	11628	100
<i>shu jumladan iqtisodiyot sektorlarida:</i>										
Davlat sektorida	2323	22,8	2348	22,4	2365	21,6	2368	20,9	2326	20,9
Nodavlat sektorida	7873	77,2	8119	77,6	8370	78,4	8960	79,1	9302	79,1
<i>shu jumladan,</i>										
chet el sarmoyalari ishtirokidagi korxonalarda	108	1	120	1,1	149,2	1,4	151	1,3	151,2	1,3
xususiy mulkda	6215	61	6799	65	7547	67,3	7832	69	8233	70,8
<i>shundan:</i>										
fermer xo'jaliklarida	810	7,9	1118	10,7	1343	12,5	1174	10,3	1221	10,5
dehqon xo'jaliklarida	1348	13,2	1430	13,7	1523	13,7	1571	13,8	1593	13,7
shaxsiy mehnat faoliyatida	3879	38	4040	38,6	4440	38,9	4864	42,9	5186	44,6
boshqalarda	1550	15,2	1200	11,5	989	9,3	964	8,5	837,2	7,2

Jadval ma'lumotlariga qaraganda, chet el investitsiyalari qatnashgan korxonalarda ham o'sish kuzatilgan, shu bilan birga xususiy mulkda hamda shaxsiy mehnat faoliyatida o'sish sur'ati ortganligi juda quvonarli holat.

2.1.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2010 yilda 2006 yilga nisbatan respublikada jami ish bilan band bo'lgan aholi soni 14%ga o'sgani holda, 2010 yilda 2006 yilga nisbatan sanoatda - 13,9%, qurilishda - 17,8%, transport va aloqa xizmatida – 23,9%, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnik ta'minot va sotuv, tayyorlovda – 37,6%, uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda – 28,8%ga, sog'liqni saqlash, sport va ijtimoiy ta'minotda – 21,7%ga,

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

ta'lim, madaniyat, san'at va fanda – 16,7%ga, moliya, kredit va sug'urtada – 7,7%ga ortgan, iqtisodiyotning qolgan tarmoqlarida esa 13,3 % ortgan.

2.1.4-jadval

Ish bilan band bo'lgan aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti²¹

	2006		2007		2008		2009		2010		2010 yilda 2006 yilga nisbatan %da
	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	ming kishi	%	
Jami iqtisodiyotda band bo'lganlar	10196	100	10467	100	11035	100	11328	100	11628	100	114,0
<i>shu jumladan iqtisodiyot tarmoqlarida:</i>											
Sanoatda	1348	13,2	1402	13,4	1486,7	13,4	1513,1	13,5	1535	13,2	113,9
qishloq va o'rmon xo'jaligida	2967	29,1	2936	28,1	3052,9	28,1	2898,4	27,7	2965	25,5	99,9
Qurilishda	849	8,3	877	8,4	550	4,8	579,5	5	1000	8,6	117,8
transport va aloqa xizmatida	488	4,8	507	4,8	944,3	8,4	1008,6	8,5	605	5,2	123,9
savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy- texnik ta'minot va sotuv, tayyorlovda	904	8,9	977	9,3	1136,2	9,3	1185,7	10,3	1244	10,7	137,6
uy-joy-kommunal xo'jaligi, aholiga noishlab chiqarish turdagi maishiy xizmat ko'rsatish	316	3,1	331	3,2	362,7	3,2	381,7	3,3	407	3,5	128,8
sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda	736	7,2	768	7,3	840,9	7,3	866,1	7,6	895	7,7	121,7
ta'lim, madaniyat va san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda	1385	13,6	1435	13,7	1533	13,7	1572,9	13,9	1616	13,9	116,7
moliya, kredit, sug'urtada	54	0,5	55	0,5	61,9	0,5	63,6	0,5	58	0,5	107,7
Boshqalarda	1149	11,3	1179	11,3	1111	10,3	1046,6	9,7	1302	11,2	113,3

Bugungi kunda respublikamiz viloyatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish, shaxsiy va yordamchi xo'jaliklarni, kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda.

Ishsizlikni kamaytirish omillarini tahlil natijasida yana bir xususiyatni alohida e'tiborga olish zarur. U ham bo'lsa mamlakatimiz dunyo miqyosida aholisi eng yosh davlatlardan biri ekanligidadir.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumki, ishchi kuchi bozoridagi talab ko'p jihatdan tovarlar, investitsiyalar bozoridagi so'rovlarga bog'liq bo'ladi, turli xil mulkchilik shaklida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardagi bandlikni shu omil yuzaga keltiradi. Umumiy tendentsiyaga asosan nodavlat sektorida bandlik ortishi hisobidan davlat sektorida bu ko'rsatkichni qisqarib borishi kuzatiladi.

2.2. Respublikada yangi ish joylarini tashkil etishning ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishdagi o'rni

Ish o'riniga bo'lgan ehtiyoj mehnat bozorida ilk bor ishchi kuchini taklif qiladigan shaxslar (akademik litseyilar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalari bitiruvchilari bo'lmish mehnatga layoqatli yoshdagilar), shuningdek, ishga joylashishga muhtoj band bo'lmagan aholi (ish joyi va daromad manbaiga ega bo'lmaganlar, chet ellardan ishlab qaytgan mehnat migrantlari, muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlar, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan, ishlamayotgan shaxslar va shu kabilar) hisobidan shakllantiriladi.

Shuni inobatga olgan holda, 2013 yilda ish o'riniga bo'lgan ehtiyoj parametrlari mehnat bozorining amaldagi tamoyillarini o'rganish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansiga ta'sir etadigan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari tahlili asosida aniqlangan. Bunda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash natijasida bo'shab qoladigan xodimlar hisob-kitobiga alohida e'tibor qaratilgan.

2013 yilda mehnat bozoriga demografik omilning sezilarli va bevosita ta'siri saqlanib qoladi. Demografik prognozlarga ko'ra, 2013 yil boshida mehnat resurslari soni 17,4 million kishini, shundan iqtisodiy faol qismi 12,9 million kishini va ularning o'sishi mos ravishda 2,2 foiz va 2,5 foizni tashkil etadi (5.1-jadval).

5.1-jadvaldan ko'rinadiki, 2013-2017 yillarda mehnat resurslari soni 11,3 foizga ko'payib, 19332,7 ming kishiga etishi kutiladi. Prognoz qilinayotgan davrda mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 11,6 foizga ko'payib, aholining

iqtisodiy faollik darajasi 74,4 foizdan 74,7 foizga oshadi. Istiqbolda band aholi sonining ham muntazam ko'payib borishi kutilib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,36 foiz atrofida bo'ladi.

Prognoz qilinayotgan davrda band aholi tarkibida iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorida bandlar sonining ko'payishi, aksincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar sonining kamayishi kuzatiladi. Mazkur holat yurtimizda har yili yuz minglab yangi ish o'rinining yaratilishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, istiqbolda ishsizlar tarkibida mehnat organlarida ro'yhatdan o'tgan va mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar sonining ham o'sishi kutiladi hamda 2017 yilga borib Yurtimizda aholining ishsizlik darajasi 4,6 foizni tashkil etishi kuzatiladi.

O'zbekistonda ishsizlikning maqbul darajasini saqlab qolish maqsadida mehnat bozorida ish o'riniga bo'lgan ehtiyoj prognoz qilinayotgan davrda yiliga o'rtacha 1219,7 ming kishini tashkil etadi, ulardan 575,7 ming nafari ta'lim muassasalari bitiruvchilari, 626 ming nafari ish bilan ta'minlanishga muhtoj band bo'lmagan aholi (ishsizlar), shu jumladan, 48 ming nafari mehnat migratsiyasidan qaytganlar.

2013 yil "Ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash" davlat dasturining prognoz parametrlari tarmoqlar bo'yicha (bandlik yo'nalishlari) va hududlar bo'yicha ishga joylashishga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, ilk bor mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va ko'p mehnat talab etadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish natijasida bo'shab qolayotgan xodimlarni, shuningdek, sanoatni, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, infratuzilmani rivojlantirish natijasida ishchi kuchiga bo'ladigan talab hisob-kitobidan kelib chiqib belgilangan.

15.1.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining istiqbol
ko'rsatkichlari, ming kishi²²**

T/r	Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2017 yilda 2013 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
1.	Mehnat resurslari soni	17365,5	17841,0	18329,5	18824,4	19332,7	111,3
2.	Iqtisodiy faol aholi soni	12929,9	13275,8	13658	14026,8	14433,5	111,6
3.	Ish bilan band aholi soni	12303,1	12644,2	13014,1	13378,5	13766,5	111,9
3.1.	Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar soni	7655,9	7838,7	8130,6	8757,5	8938,6	116,8
3.2.	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni	4296,2	4484,8	4559,8	4302,7	4498,4	104,7
3.3.	Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni	351,1	320,7	323,7	318,3	329,5	93,8
4.	Ishsizlar soni	626,8	631,6	643,9	649,1	661,4	105,5
4.1.	Mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar	7,2	9,5	10,9	12,6	13,1	181,9
4.2.	Mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar	619,6	622,1	633	636,5	648,3	104,6

Dasturda 2013 yilda 6 ta asosiy yo'nalish bo'yicha mamlakatimizda jami 972,7 mingta ish o'rni tashkil etilishi nazarda tutilgan (15.1.1-rasm).

Birinchi yo'nalish hisobidan 57,9 mingta, shu jumladan, xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasiga kiradigan korxonalarda – 16,9 mingta, hududlarga bo'ysunadigan korxonalarda – 41 mingta ish o'rni yaratilishi ta'minlanadi.

Eksport qiluvchi korxonalarning rag'batlantirilishini kuchaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning eksport qilinishini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ushbu yo'nalishda ish o'rini yaratishning muhim omillari bo'lib xizmat qiladi. Xususan, 2012 yilning 1 aprelidan boshlab valyuta kreditlari bo'yicha asosiy qarzlarni uzish

²² Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

uchun joriy to'lovlarga yo'naltiriladigan, valyuta kirimlarining bir qismini majburiy tarzda vakolatli banklarga sotishdan ozod qilinishi, yangi ishlab chiqarishlarni qurish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, Toshkent viloyatida «Angren» maxsus industrial hududining tashkil etilishi, 2012–2016 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta ta'minlash dasturining tasdiqlanishi va boshqa tadbirlar ish o'rinini yanada ko'paytirish barobarida tarmoqlararo aloqador (transport, qurilish yoki ijtimoiy infratuzilma sohalari) tizimlarga bog'liq ish o'rinini yaratishga ham xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi ish o'rinining salmoqli qismi Farg'ona (8,6 ming), Toshkent (7,8 ming), Qashqadaryo (5,9 ming), Namangan (5,1 ming) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,5 ming) yaratiladi.

Ikkinchi yo'nalish bo'yicha ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda qabul qilingan, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish, statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni, shunga asosan 2012 yilning 1 avgustidan boshlab 80 ta ruxsat berish tartib-taomili, litsenziyalanadigan 15 ta faoliyat turi hamda 68 ta statistik va soliqqa oid hisobotlar shaklining bekor qilingani, kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish va kengaytirish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlarining amalga oshirilishi 485,6 mingta ish o'rini tashkil qilish imkoniyatini yaratdi.

2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash orqali qo'llab-quvvatlashni yuqori darajada saqlab qolish rejalashtirilmoqda. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan shu maqsadlar uchun 5,1 trillion. so'm ajratilishi nazarda tutilmoqda. Bunda imtiyozli kredit resurslari asosan uzoq qishloq tumanlarida va mehnat bozoridagi vaziyat og'ir bo'lgan hududlarda ish o'rini yaratishni nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ish o'rini yaratishning ushbu yo'nalishdagi asosiy tarmog'i xizmat ko'rsatish va servis sohasi bo'lib, xususan, mamlakat YaIMda xizmat ko'rsatish ulushining maqsadli parametrlariga (52,5 foiz) erishish doirasida kichik biznes korxonalarida 267,1 mingta ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmat turlarini avvalo qishloq joylarida kengaytirish va sifatini oshirish hamda shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uyg'un rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasining roli va ahamiyatini oshirishga doir maqsadlarga erishilishiga bevosita bog'liq. Mazkur soha kelgusi yilda 18 foizdan ortiqroqqa oshishi kutilayotgan kompyuter dasturlarini yaratish (elektron ta'lim va konsultativ xizmatlarni inobatga olgan holda), savdo va umumiy ovqatlanish, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hisobidan yanada rivojlanadi. Yakka tadbirkorlikning rivojlanishi 117,7 ming kishining bandligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda **uchinchi yo'nalish**ning rivojlanishi 218,4 ming nafar band bo'lmagan fuqaroni, asosan ko'p bolali ayollar, nogironlar va aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj boshqa toifalarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Bu borada 2012 yilda qabul qilingan, iqtisodiyotning turli jabhalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim shakli bo'lgan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur qonunchilik bazasini yaratish, oilaviy biznes uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, ish o'rini tashkil qilish imkoniyatini yaratgan «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun moddalarida kichik biznes sub'ektlari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlar oilaviy korxonaga ham taalluqli ekani alohida belgilab qo'yilgani e'tiborga molik.

Oilaviy tadbirkorlikda faoliyatni tashkil qilishning boshqa shaklida bo'lmagan ish kuni va mehnat taqsimoti imkoniyatlari mavjud, bu esa ishlab chiqarishga, boshqa holatlarda «band bo'lmaganlar» qatorida bo'lgan, yosh bolali ayollarni, o'quvchilar va aholining mehnat bozorida raqobatdosh bo'la olmaydigan boshqa toifalarini qisman bo'lsa-da, oddiy sharoitlarda biznes ishiga jalb qilish imkonini beradi. Ushbu tashkiliy shakl mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlarga

mehnat faoliyati va tadbirkorlikka kirishish uchun qulay va ijtimoiy maqbul sharoit yaratadi.

Uy mehnatiga asoslangan ish o'rinining salmoqli qismi milliy hunarmandchilikning azaliy markazlari bo'lgan hududlarda — Namangan (28,9 ming), Farg'ona (27,2 ming), Andijon (20,0 ming), Samarqand (15,4 ming), Buxoro (18,0 ming) viloyatlarida, shuningdek, Shahrixon, G'ijduvon, Chust, Shahrisabz, Urgut, Boysun, Rishton, Xiva va boshqa tumanlarda tashkil etiladi.

Ish o'rini tashkil etishning **to'rtinchi yo'nalishida** yagona milliy avtomobil transporti tizimini tashkil etish, avtomobil yo'llarini, shu jumladan, O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish, temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, bosh loyihalar asosida qishloq aholi punktlarini kompleks qurishni amalga oshirish, qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha zamonaviy uy-joylar, muhandislik inshootlari, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurishni kengaytirish, qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ilmiy muassasalarini zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlashga doir investitsiya loyihalar va shu kabi boshqa ijtimoiy omillarning muhimligi saqlanib qoladi. Yurtimizda ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining kengaytirilishi 73,1 mingta ish o'rni tashkil etish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarini rivojlantirish va kengaytirish, ayniqsa, tayyor qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga, sabzavot-poliz mahsulotlarini saqlashga, issiqxona xo'jaliklarini tashkil etishga ixtisoslashgan sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning davom ettirilishi 124,1 mingdan ortiq kishining bandligini ta'minlaydi.

**2014 yilda ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash
DASTURI²³**

T /r		Jami	Shu jumladan hududlar bo'yicha													
			Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm	Toshkent sh.
	Ish o'rinini tashkil etish jami	972676	49725	79580	73737	43915	88777	41032	75111	93894	65943	40051	86773	92441	60038	81659
	Shu jumladan quyidagi tadbirlar hisobidan:															
1.	Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	57878	755	2580	2550	2381	5940	4118	5059	3540	2820	1710	7803	8552	2610	7460
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish va rivojlantirish	367849	21240	33950	27350	12217	27650	12454	24264	35160	28687	17100	35682	28560	13111	50424
	shu jumladan:															
2.1.	sanoatda	56447	1000	3790	4100	1635	2630	1749	5511	7570	4357	2171	5562	7807	1245	7320
2.2.	uy- joy qurish va ta'mirlashda	44310	310	6350	3000	1724	2800	2557	2895	6000	7294	1352	3520	2821	1927	1760
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	117728	2370	11750	8630	5565	14700	5542	8384	11400	8628	8670	8481	8612	6376	8620
4.	Kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish	218357	9350	20000	18022	10489	23950	6060	28892	15400	10898	1901	17231	27155	20369	8640
5.	Fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, asalarichilik va baliqchilik)	124071	10950	4450	12970	7685	10307	8790	2318	17909	10274	4020	9444	10561	14393	-
6.	Ishlab chiqarishning ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish	73088	4610	6050	3365	4995	5580	3361	4988	9385	4100	4250	6781	7978	2545	5100
7.	Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash	13705	450	800	850	583	650	707	1206	1100	536	2400	1351	1023	634	1415

²³ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va shu asosda ichki va tashqi bozorda raqobatdosh bo'lgan zamonaviy va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish qishloq xo'jaligida qo'shimcha muqim ish o'rini tashkil qilish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi;

Vaqtinchalik faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar, shu jumladan, tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash 13,7 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minlaydi.

2013 yilda ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining asosiy parametrlari 15.1.2-jadvalda o'z aksini topgan.

15.1.2-jadvaldan ko'rinadiki, 2013 yilda tashkil etiladigan ish o'rinining asosiy qismi (85,1 foiz) kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish va rivojlantirish (37,8 foiz), kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish (22,4 foiz), fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish (12,8 foiz) hamda yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish (12,1 foiz) hisobidan tashkil etiladi.

Hududlar bo'yicha yaratiladigan ish o'rinining salmoqli qismi Samarqand (93,9 ming), Farg'ona (92,4 ming), Qashqadaryo (88,8 ming), Toshkent (86,8 ming), Andijon (79,6 ming), Namangan (75,1 ming) viloyatlari va Toshkent shahrida (81,7 ming) yaratiladi.

Ishsizlik darajasi birmuncha yuqori bo'lgan, tog'li, chegara/oldi hududlarida joylashgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha etarli darajada rivojlanmagan 28 ta tumanga alohida e'tibor qaratiladi, ushbu hududlarda 2013 yilda kamida 126 mingta yoki 2012 yil dasturidagidan 5 foiz ko'p ish o'rni tashkil etilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, ishlovchilar soni ko'p bo'lgan ixcham kichik korxonalarni rivojlantirishga etarli e'tibor berilmaydigan 83 ta tumanda, ko'p mehnat talab etadigan engil, oziq-ovqat, yog'ochga ishlov berish, elektrotexnika tarmoqlari va qurilish materiallari sanoati quvvatlarining birorta ham yirik sanoat korxonasi bo'lmagan 28 tumanda tashkil etish va joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan.

Dastur doirasida vazirliklar, idoralar va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan korxonalar bo'yicha 2013 yilda ish o'rini tashkil etishning tarmoq dasturlarini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, ishchi kuchining mavsumiy talab va takliflarini inobatga olgan holda ilgari tashkil etilgan ish o'rinini so'zsiz saqlab qolish va ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutilgan.

2013 yilda ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining moliyaviy manbalarining asosiy qismini korxona va aholi mablag'lari tashkil etadi (15.1.2-rasm).



15.1.2-rasm. 2013 yilda ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining moliyaviy manbalari, foizda **Manba?**

Rasmdan ko'rinib turganidek, 2013 yilda ish o'rini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi moliyaviy manbalarining 42,7 foizini korxonalar va aholi mablag'lari, 21,6 foizini xorijiy investitsiyalar, 18,5 foizini tijorat banklari, 11 foizini byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda 6,2 foizini Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari tashkil qiladi.

2.3. Respublikada samarali ijtimoiy siyosatning ishsizlikning salbiy oqibatlarini barataraf etishdagi ahamiyati

Barchamizga ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi barcha davlatlarga ertami-kechmi o'zining ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Shu jumladan, ishsizlik darajasi past bo'lgan davlatlarga ham sezilarli darajada ta'sir etmoqda.

Ishchi kuchi bozori iqtisodiyotning turli sektor va tarmoqlarining muhim bog'lovchi bo'g'inidir. Ishchi kuchi bozori – bu ishchi kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi va unda talab va taklif qonuni amal qiladi. Bu erda raqobat sharoitida ishchi kuchining oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Ishchi kuchi bozorining bir tomonida ish kuchi egasi tursa, ikkinchi tomonida ishchi kuchiga muhtoj korxona, firma turadi. Ular o'rtasida ayirboshlash munosabati yuz beradi.

Ishchi kuchi bozori – bozorning boshqa tizimlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, haqiqatan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim.²⁴ Ishchi kuchiga jami talab – investitsiya va ishlab chiqarish xajmlari bilan tartibga solinadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, ishchi kuchi bozori ish beruvchilar va yollanib ishlashni xohlovchilarni bevosita kelishuvi orqali talab va taklifni qanoatlantirish uchun sharoitlar yaratadi va ishchi kuchini xarid qilish-sotish jarayonlarini bevosita tartibga solmaydi.

Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli ishchi kuchining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni xal qilishni eng samarali qurollaridan biri bo'lgan ishchi kuchi bozori tushunchasi, tarkibi, xususiyatlari va vazifalarini tadqiqot qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularni o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning inobatga olinishini taqozo etadi:

- Respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning 40% dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

²⁴ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Mehnat, 2009. 327 b.

- Noqishloq xo'jaligi ishchi joylarining etishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslarining ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butun aholisining salmoqli hissasini tashkil qiladi va ularning soni o'smoqda;

- Mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo'lmagan kishilarning malakasi va safarbarligining pastligi ularning yashash joylaridan shaxarga va mamlakatning kam mehnat bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar ob'ektlariga qarab harakat qilishlariga asosiy to'sik bo'lmokda;

- Hududlarda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari xamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi ratsional nisbatni ta'minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Ishchi kuchi bozorining shakllanishi va rivojlanishi masalalari tadqiq qilinar ekan albatta uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish zarurdir. Ishchi kuchi bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, baxosi va yollashdagi raqobat. Talab ishlab chiqarish ijtimoiy infrastrukturasi va boshqa xalq xo'jaligi sohalarining ishchi kuchi bozoriga buyurtma bergan, ish haqi fondi, shaxsiy xo'jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta'minlangan ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif yollanish sharti bilan ishga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lgan ishchi kuchining miqdor va sifat (soni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, «ishchi kuchi bozori» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining sistematik tadqiqoti mazkur bozorning bajaradigan asosiy vazifalarini ham aniqlashga imkon beradi:

- Ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;
- Bozor uslubida xo'jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;

- Mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;
- Ishsizlarni ish topishga va ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirish.

Mehnatning erkinligi va ixtiyoriyligi – ishchi kuchi bozori shakllanishining asosiy sharoiti yoxud shartidir. Shu bilan bir qatorda ishchi kuchi bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjud. Ishchi kuchi bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi. Bu erda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub'ektlarni o'zaro almashuv munosabatiga kirishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular ham o'z navbatida takror ishlab chiqarishda aholini ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojini ifodalanishi bo'ladi.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish ishchi kuchi bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi. Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar xozirgi sharoitda ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga talab va taklifining yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlaridan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratishni va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan ishchi kuchi bozorining yangi infrastrukturasi ko'p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab

chiqarish bo'g'inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlanadi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) ishchi kuchi bozorida ishchi kuchining sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat huquqi bo'yicha g'arb mutaxassislarining ilmiy ishlarida mehnat shartnomasi «xodimni ish haqi evaziga mehnat qilish majburiyatini olish va huquqiy buysunish mavjudligi haqidagi kelishuv» sifatida ifodalanadi. Shartnoma xususiy-huquqiy xaridlarning turlicha ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan fuqarolik huquqiga xos me'yorlar, qoidalarni qo'llash imkoniyatlari va zaruriyatni asoslaydi.

Ishchi kuchi bozori xususiyatlari bir qator omillar bilan belgilanadi: arab mamlakatlari iqtisodiyoti an'anaviy ravishda ochiq iqtisodiyotga ega, ularda tovar, kapital va ishchi kuchining erkin harakati uchun sharoit mavjud. Bu mamlakatlar dunyoning eng yirik xom ashyo va kapital eksporterlari va sanoat mahsulotlari va ishchi kuchi importerlaridir. Neft tarmog'i mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti shakllanishining asosiy moddasi bo'lib, davlat xarajatlari ham neftdollarlariga bog'liqdir. Haqiqatda aholining iqtisodiy faolligi ham neftdan olinuvchi daromad hisobiga ta'minlanadi. Yangi ish joylarini yaratish, ish haqi darajasi, nafaqalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bevosita neftdan olinuvchi daromadlarga bog'liq. Fors ko'rfazi mamlakatlariga bandlik darajasining xuddi shunday daromadga ega mamlakatlarga nisbatan 35-37% ga pastligi xosdir. Bunga demografik, ijtimoiy va madaniy omillar sababdir. Birinchidan, bu mamlakatlarga mehnatga layoqatsiz aholining hissasi kattaligi xosdir. Ikkinchidan, mehnat faoliyatini boshlashga shoshmaslik xos, chunki barcha darajadagi ta'lim tizimi bepul. Uchinchidan, davlat sektoriga nafaqa yoshining kichikligi xosligi, jumladan, 20 yil mehnat staji bo'lgan xizmatchi 45 yoshidan nafaqaga chiqishi mumkin. Uchinchidan, keyingi paytlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, ayollar bandligi darajasining pastligi xos. Ayollar o'rtasida maksimal bandlik Quvaytda (30%) qayd etilgan bo'lsada, bu o'rtacha jahon ko'rsatkichlaridan ancha past ko'rsatkichdir.

Bu mamlakatlar aholisining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasida banddir. Sanoat sohasida bandlikka kelsak, u arab mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diversifikatsiya siyosati bilan bevosita bog'liq, jumladan, Saudiya Arabistoni va Katarda diversifikatsiya neftga bog'liq sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ummonda neftga bog'liq bo'lmagan sohalar rivojlantirilmoqda, BAA tranzit savdo, Bahraynda bank sohasi ivojlanishiga alohida e'tibor berilgan, natijada industrial sohalarda bandlik Saudiya Arabistoni, Ummon va Katarda o'sgan, boshqa mamlakatlarda esa, aksincha, kamaygan. Ummon va Saudiya Arabistonidan tashqari barcha mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi hisssasi juda kichik, bu qishloq xo'jaligining resurs bazasi cheklanganligi va urbanizatsiya darajasi yuqoriligi bilan bog'liq.

Ishsizlik darajasi bo'yicha tizimlashtirilgan ma'lumotlar mavjud emas, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u 10-12%ni tashkil etadi. Ishsizlikning eng kam darajasi Bahrayn va Katarga xos.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu mamlakatlarning ishchi kuchi bozoriga xos umumiy xususiyat xorijiy ishchi kuchidan foydalanish ko'lamlarining kattaligidir. Buning omillari turlicha, jumladan, aholi sonining kamligi, ayollarning mehnat faoliyatida qatnashmasligi, malakali kadrlarning etishmasligi, mahalliy aholining jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga moyilligining yo'qligi.

Xorijiy ishchi kuchining ommaviy kelishi 20-asrning 70-yillari boshiga to'g'ri keladi. Neft natijasida bu mamlakatlarda ishchi kuchi etishmasligi sezildi. Dastlabki migrantlar Palastinliklardan iborat edi. Keyinchalik Misr, Suriya, Iroq va Livandagi siyosiy o'zgarishlar bu mamlakatlardan ishchi kuchi oqimini kengaytirdi.

Keyinchalik mamlakatlar Pokiston, Hindiston va Bangladeshdan ishchi kuchini jalb qilish kengaydi. Bunga sabab bu mamlakatlardan kelgan ishchi kuchining narxi arab mamlakatlariga nisbatan past edi. So'nggi yillarda bu mamlakatlarda xorijiy mamlakatlardan immigrantlar oqimi kamaytirish, ishchi kuchi bozorini milliyashtirish siyosati olib borilmoqda. Chunki xorijiy ishchi kuchining hisssasi kattaligi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib

chiqarmoqda. Xorijiy ishchi kuchi o'tkazmalari natijasida yalpi ichki mahsulotning 10% ortig'i tashqariga chiqib ketmoqda. Natijada mamlakatlarning ishchi kuchi bozoridagi davlat siyosati migratsiyani tartibga solish siyosatidan iborat bo'lib qolmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan omillir b ishchi kuchi bozoridagi vaziyatni belgilab beruvchi omillar sifatida yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruhga kiruvchi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ishchi kuchi bozoriga xos xususiyat uning shakllanganligi va davlat tomonidan faol tartibga solinishidir. Jumladan bu mamlakatlar ishchi kuchi bozorini tartibga solishda quyidagi dasturlar bajarilganini ajratib ko'rsatish kerak:

1. Ishsizlarga ish joyi topishda ko'mak berish dasturlari, bunday dasturlar bo'sh ish joylari bo'yicha ma'lumotlar berish, ish joylarini topishda ko'maklashish va kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini qamrab oldi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kadrlarni qayta tayyorlash tizimi keng tarqalgan. Chunki ushbu mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga, ayniqsa, yuqori texnologik tarmoqlarda talab katta. Kadrlarni qayta tayyorlash tizimi asosan davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi, shu bilan birga tadbirkorlar ham ushbu sohani rivojlantirish uchun umumiy daromadining 1%ga yaqin qismini o'tkazadilar. Bunday holatni Gongkong, Malayziya va Singapurda ko'rish mumkin.

2. Yangi ish joylarini yaratish dasturlari ham davlat tomonidan, ham xususiy tadbirkorlar tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Moliyaviy imkoniyatlari katta bo'lgan xususiy sektor albatta etakchilik qiladi, mablag'lar kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun sarflanadi.

Yangi ish joylarini yaratish dasturlari shuningdek, davlat sektoriga ham xosdir. Moliyaviy mablag'lar cheklangani sababli davlat ustuvor va ijtimoiy jihat muhim tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydi. Janubiy Sharqiy Osiyoning turli mamlakatlarida bu sohalar turlicha, jumladan, Malayziyada infratuzilma tarmoqlari, Janubiy Koreyada ekologik sohalarda davlat yangi ish o'rinlarini moliyalashtiradi.

3. Aholi ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash dasturlari. Bu dasturlar davlat maqsadli zayomlari, ishsizlikdan sug'urtalash tizimi va davlatning transfertlar

dasturini kengaytirish bo'yicha tadbirlarni qamrab oladi. Shu bilan birga aholining ayrim guruhlari ayollar, yoshlar va keksalarga birinchi navbatda yordam ko'rsatiladi. Dasturni amalga oshirishning asosiy yo'nalishi ish yo'qotishdan sug'urtalash tizimidir. U Janubi-Sharqiy Osiyoning deyarli barcha mamlakatlarida qo'llaniladi. Ishsizlikdan sug'urtalash tizimi tadbirkorlar tomonidan ish haqi fondining 1% ga teng oylik badallar hisobidan shakllanadi. Bu fondan ishsizlik badallarini to'lash muddati va shartlari turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, Janubiy Koreyada ish stajiga bog'liq bo'lmagan holda ishini yo'qotganlarning barchasi nafaqa to'lanadi²⁵.

4. Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan dasturlar. Bu dasturlar Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida 90-yillarning oxiridan boshlab qo'llanila boshlagan. Ular milliy iqtisodiyot tarkibini qayta tuzish va barqarorlashtirish dasturlari doirasida amalga oshiriladi.

Bu dasturlar ish beruvchi va ishga yollanuvchi o'rtasida munosabatlarni yaxshilash, axborot bilan ta'minlash, ishdan bo'shatishga muqobil variantlarni topish kabi choralarni qamrab oladi. Kichik va o'rta korxonalar uchun mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, seminarlar tashkil etish, menejerlarni tayyorlash kurslarini tashkil etish ham ushbu dasturning yo'nalishlaridan biridan iborat.

Shunga qaramasdan bu mintaqa mamlakatlarida so'nggi yillarda ishsizlik darajasi o'sdi, jumladan 2006 yilda 2005 yilga nisbatan o'sish 0,1 %ni tashkil etdi, hozirgi paytda bu mamlakatlarda ishsizlik darajasi 3,6% ni tashkil etadi.

Uchinchi va undan keyingi guruhga kiruvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligiga xos xususiyat ishchi kuchi bozorida ortiqcha taklifning mavjudligidir. Umuman, dunyo iqtisodiyotida so'nggi 2 yil ichida o'sish kuzatilgani bilan, ishsizlarning soni 2006 yilda rekord miqdor 195 mln. kishiga etdi. Dunyodagi o'rtacha ishsizlik darajasi 6,3%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarning katta qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga shakllanadi.

²⁵ Internet tarmog'ining Xalqaro mehnat tashkiloti (www.ilo.org) veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Dunyoda mehnatga layoqatli aholining soni so'nggi besh yil ichida (2006-2010 yy.) 3,9 mlrd.kishidan 4,64 mlrd. kishigacha o'sdi. Bu ko'rsatkich 2015 yilga kelib 5,35 mlrd.ni tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. O'sishning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga yuz berdi. O'rtacha o'sish sur'ati 2%ga teng bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 0,8% teng, shu bilan birga ularda bunday o'sish asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga yuz bermoqda.

Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari kirib, ularda ishsizlik darajasi 12,2 % ni tashkil etadi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ishsizlik darajasi o'rtacha 8%ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatlar bo'yicha katta farqga ega. Bu mamlakatlarda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror bo'lishiga qaramay, ish haqi darajasi juda past.

Yuqorida keltirilgan dasturlarning ayrimlaridan bizning mamlakatimizda ham ishsizlikni kamaytirishda foydalanishimiz mumkin. Ammo, ishsizlikni ilmiy o'rganmasdan, uni kamaytirishga urinish bugungi kunda kechirib bo'lmaydigan hodisa hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili ishchi kuchi bozorini to'ldirish ikki asosiy sabab hisobiga amalga oshirilishi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi. Ulardan biri mamlakat iqtisodida band bo'lgan ortiqcha ishchilarni ozod qilish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlash zaruratidan iborat.

Ta'lim sohasida yoshlarning ishchi kuchi bozoriga erta kirib borishining oldini olishga qaratilgan choralar amalga oshiriladi. Bunda ularning o'qishi uchun subsidiyalar tizimi qo'llaniladi.

II - bob bo'yicha xulosa

III -BOB. ISHSIZLIKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBAT-LARINI BARTARAF ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

3.1.Respublikada samarali bandlik siyosati orqali mehnat bozori barqarorligini ta'minlash

Ishsizlik mehnat bozorining asosiy muammolaridan biri bo'lib, biror bir mamlakat iqtisodiyoti bunday muammodan xoli emas. Ishsizlar sonini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan avval "ishsizlik" degan tushunchaning ma'no-mohiyatini anglab olish muhimdir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik iqtisodiy faol aholining mehnat daromadi keltiradigan ish o'rniga ega bo'lmasligini bildiradi. Bu tushuncha xalqaro tashkilotlarda, shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha sharhlanadi. Masalan, AQShda ishsiz shaxs deb oxirgi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan va so'nggi to'rt hafta ichida ishga joylashish uchun bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash agentliklariga murojaat qilgan, mehnat layoqatiga ega bo'lgan fuqarolarga aytiladi. Yaponiyada esa so'nggi haftada bir soat ham ishlamagan va ish qidirayotgan, Buyuk Britaniyada oxirgi bir haftada ish bilan band bo'lmagan hamda ish izlayotgan shaxs ishsiz sifatida belgilangan²⁶.

Bizning mamlakatimiz mehnat qonunchiligida ishsiz shaxs qo'yidagicha ta'riflangan: o'n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga layoqatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi²⁷.

3.1.1-jadval

²⁶ Mo'minov X.I. Buxoro viloyatida mehnat bozorini shakllantirish va uning faoliyatini rivojlantirish. – T.: Iqtisodiyot instituti, 2008. – 89-bet.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi // www.lex.uz

**O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni
dinamikasi (ming kishi hisobida)²⁸**

Hududlar	Y i l l a r					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2008	2009	2010	2011	2012	farqi	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,9	42,2	44,5	41,7	41,3	-0,6	98,6
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	64,1	65,6	65,1	64,6	66,3	2,2	103,4
Buxoro	33,6	40,9	40,0	40,3	40,2	6,6	119,6
Jizzax	15,5	21,8	22,0	21,5	21,2	5,7	136,8
Qashqadaryo	47,9	57,0	56,6	56,2	58,3	10,4	121,7
Navoiy	20,3	20,9	20,1	20,5	21,5	1,2	105,9
Namangan	46,7	49,3	48,3	48,5	49,0	2,3	104,9
Samarqand	65,3	75,2	74,8	74,1	74,6	9,3	114,2
Sirdaryo	12,8	14,8	14,4	14,6	13,9	1,1	108,6
Surxondaryo	35,4	47,0	46,1	46,3	46,6	11,2	131,6
Toshkent	44,9	47,9	47,4	47,3	45,4	0,5	101,1
Farg'ona	72,6	72,5	77,1	71,4	73,2	0,6	100,8
Xorazm	28,0	35,1	33,6	34,6	35,6	7,6	127,1
Toshkent sh.	38,6	41,2	38,0	40,6	39,2	0,6	101,6
Respublika bo'yicha	567,7	631,5	628,2	622,4	626,3	58,6	110,3

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni nisbatan barqarorlashib, uning iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ulushi esa kamayib bormoqda.

3.1.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2008-2012 yillar davomida ish bilan ta'minlanishga muhtoj bo'lgan aholi soni 58,6 ming kishiga yoki 10,3 foizga ortgan. Bu davrda mazkur toifadagi aholi sonining o'sish sur'ati Buxoro (19,6 foiz), Jizzax (36,8 foiz), Qashqadaryo (21,7 foiz), Samarqand (14,2 foiz), Surxondaryo (31,6 foiz) va Xorazm viloyatlarida (27,1 foiz) mamlakatimiz bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan. Aytish joizki, tahlil qilinayotgan davrda ish bilan ta'minlanishga muhtoj bo'lgan aholi soni faqat Qoraqalpog'iston Respublikasida 41,9 ming kishidan 41,3 ming kishiga yoki 1,4 foizga kamaygan.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

O'zbekistonda ish bilan ta'minlanishga muhtoj bo'lgan aholining 50 foizga yaqin qismi Farg'ona (11,7 foiz), Samarqand (11,9 foiz), Andijon (10,6 foiz) va Qashqadaryo viloyatining (9,3 foiz) ulushiga to'g'ri keladi.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yurtimizda 6,0 ming nafar yoki iqtisodiy jihatdan faol aholi sonining 0,05 foizi ishsiz hisoblanadi. Ayni vaqtda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining xalqaro mehnat tashkiloti metodologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblariga qaraganda, ishsizlikning real darajasi 4,9 foiz atrofida bo'ldi. Bu ko'rsatkich 2011 yilda 5 foizni tashkil etgan.

3.1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi tarkibi (ming kishi hisobida)²⁹

Ko'rsatkichlar	Yillar					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2008	2009	2010	2011	2012	farqi	foiz
Ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni, jami	567,7	631,5	628,2	622,4	626,3	58,6	110,3
<i>Shundan:</i>							
Mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni	22,7	20,1	16,2	12,9	6,0	-16,7	26,4
Mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar soni	545,0	611,4	612,0	609,5	620,3	75,3	113,8

Bugungi kunda mamlakatimizda ishsizlikning quyidagi turlari ko'p uchramoqda:

- tarkibiy,iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi yoki eski tarmoqlarning barham topishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi;

- yashirin, bu asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xos va haqiqiy ishchi kuchini kammiqdorda talab qiladi. Yashirin ishsizlik ishlab chiqarishning chuqur tanazzuli sharoitida korxonalarda ortiqcha bandlikning saqlanib qolganidan dalolat beradi;

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

- mavsumiy, ma'lum bir mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlaydigan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va tayyorlash muddati bilan bog'liq. Mavsumiy ishsizlikning hajmi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning mavsumiy omillari baravar ta'sir qilishi natijasida namoyon bo'ladi;

- texnologik o'zgaruvchan, bunday ishsizlik korxonada texnologik o'zgarishlarning amalga oshirilishi va korxonaning modernizatsiya qilinishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, fan-texnika yutuqlari tufayli qo'l mehnati o'rnini mashina egallashi sababli yuzaga keladi.

Ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar va mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlardan iborat. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni kamaygan, aksincha mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar soni esa ortgan (10.3.2-jadval).

10.3.2-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2008-2012 yillarda mamlakatimiz bo'yicha mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni 22,7 ming kishidan 6 ming kishiga yoki 73,6 foizga kamaygan. Aksincha, bu davrda mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar soni 75,3 ming kishiga, ya'ni 13,8 foizga ortgan. Boshqacha qilib aytganda, tahlil qilinayotgan davrda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi tarkibida rasmiy ro'yxatdan o'tgan ishsizlar ulushi 4,0 foizdan 1 foizga kamaygan, mustaqil tarzda ish izlayotgan ishsizlar soni ulushi esa 96 foizdan 99 foizga ortgan.

Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ishsizlarning asosiy qismi Toshkent shahri (20,7 foiz), Qashqadaryo (11,7 foiz) va Surxondaryo (10,3 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Ish qidirib, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga murojaat qilganlarning aksariyati ishga joylashtirilmoqda.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, 2009 yilda ish izlab, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlariga murojaat qilganlarning 85,8 foizi ishga joylashtirilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu raqam 90,4 foizga teng bo'lgan. Bunday ko'rsatkichga erishishga bandlikka

ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari va ularning har bir yirik qishloq fuqarolik yig'inida joylashgan muqim punktlarida fuqarolarni ishga joylashtirishga individual ravishda yondashilgani ko'maklashdi.

2012 yilda Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlariga eng ko'p murojaat qilganlar Farg'ona (murojaat qilganlar umumiy sonining 13,7 foizi), Samarqand (11,1 foiz) va Andijon (10,4 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi. Mehnat organlariga ko'proq qishloq (72,9 foiz) aholisi hamda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar (54,3 foiz) murojaat etmoqda.

Fuqarolarning ishga joylashishlariga ko'maklashish, ish qidirish muddatlarini qisqartirish maqsadida 2012 yili 768 ta bo'sh ish o'rini yarmarkasi o'tkazildi va ularda 36,6 mingdan ortiq ish beruvchi va 264 ming nafardan ortiq ish izlovchi qatnashdi. Ushbu yarmarkalarda 100,5 ming kishi, jumladan, 62,9 ming yosh yigit-qiz, o'quv muassasalari bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilganlar, jazoni o'tash muassasalaridan qaytganlar ishga joylashishga yo'llanma olgan.

O'zbekistonda ishsiz fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan tartibda ijtimoiy nafaqalar to'lanadi, ishsizlar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladi, kasbga o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 iyuldagi **“Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida”gi 353-sonli qaroriga**³⁰ asosan, haq to'lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

-ish qidirayotgan shaxs sifatida mehnat organlarida ro'yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish haqi (mehnat daromadi) olishi va ish qidirayotgan davrida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat organlari tomonidan ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

³⁰O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 iyuldagi “Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida”gi 353-son qarori // www.lex.uz.

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish;

- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mehnatga qayta tiklash;

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

**O'zbekiston Respublikasida Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so'rab
murojaat qilganlar va ishga joylashtirilganlar soni dinamikasi³¹**

Hududlar	Ish qidirib, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga murojaat qilganlar soni, birlik				Ishga joylashtirilganlar soni, birlik				Murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashtirilganlar ulushi, foiz			
	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	47339	48256	45115	44851	42976	44395	43333	42154	90,8	92,0	96,1	94,0
<i>viloyatlar:</i>												
Andijon	55229	67210	68236	67677	48313	59614	62577	61620	87,5	88,7	91,7	91,1
Buxoro	39819	44636	44475	43330	31668	38159	40507	40116	79,5	85,5	91,1	92,6
Jizzax	32526	20520	21457	20961	27957	17147	18170	18033	86,0	83,6	84,7	86,0
Qashqadaryo	58855	57586	56419	55335	52175	52665	50671	50492	88,7	91,5	89,8	91,2
Navoiy	30269	22969	23121	23268	26811	21245	21373	21742	88,6	92,5	92,4	93,4
Namangan	58851	48301	49655	50408	49861	43060	45103	46266	84,7	89,1	90,8	91,8
Samarqand	64355	73197	76350	72721	59020	64937	68360	67303	91,7	88,7	89,5	92,5
Sirdaryo	20908	16508	16210	41885	17725	14131	14407	39162	84,8	85,6	88,9	93,5
Surxondaryo	38012	41807	42689	14972	32911	38859	38913	13328	86,6	92,9	91,2	89,0
Toshkent	43343	56189	56743	54686	39203	51121	52943	51459	90,4	91,0	93,3	94,1
Farg'ona	76723	92946	87934	89680	66596	80911	77128	77519	86,8	87,1	87,7	86,4
Xorazm	46111	37404	36291	37221	32073	30614	31401	32653	69,6	81,8	86,5	87,7
Toshkent sh.	46158	43953	36746	36020	38018	38839	30805	28651	82,4	88,4	83,8	79,5
Mamlakatimiz bo'yicha	658498	671482	661441	653015	565307	595697	595691	590498	85,8	88,7	90,1	90,4

³¹ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasida haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan ishsizlar soni ortib, 2007 yilga qaraganda 77,2 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin (3.1.5-jadval).

3.1.5-jadval

O'zbekiston Respublikasida haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan fuqarolar sonidynamikasi (kishi hisobida)³²

Hududlar	Yillar					2012 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2009	2010	2011 y	2012	farqi	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4461	5006	3406	3487	3538	-923	79,3
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1379	2446	4929	5010	5160	3781	374,2
Buxoro	1475	3568	3680	4246	4064	2589	275,5
Jizzax	1208	2138	1862	1880	1733	525	143,5
Qashqadaryo	3324	3240	4349	4504	4627	1303	139,2
Navoiy	790	1684	1927	1990	2104	1314	266,3
Namangan	3474	4125	3597	3600	3852	378	110,9
Samarqand	1633	3245	5500	5596	4215	2582	258,1
Sirdaryo	728	1051	3255	3293	3427	2699	470,7
Surxondaryo	918	2328	1241	1297	1235	317	134,5
Toshkent	1273	2658	4273	4274	3291	2018	258,5
Farg'ona	3071	6730	6273	6343	6431	3360	209,4
Xorazm	1771	4254	2587	2661	2672	901	150,9
Toshkent sh.	2122	4104	2729	2716	2593	471	122,2
O'zbekiston bo'yicha	27627	46577	49608	50897	48942	21315	177,2

3.1.5-jadvaldan ko'rinadiki, haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan fuqarolar soni 2007 yildagi 27,6 ming kishidan 2012 yilda 48,9 ming kishiga yoki 77,2 foizga ko'paygan. Bunday o'sish tendentsiyasi mamlakatimizning barcha hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi bundan mustasno) kuzatilgan. Jumladan, bu davrda haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan fuqarolar sonining o'sish sur'ati Andijon, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan.

Haq to'lanadigan jamoat ishlarini mablag' bilan ta'minlash ish beruvchilar tomonidan o'z mablag'lari, shuningdek, mahalliy byudjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan fuqarolar mehnatiga haq to'lash xarajatlarining:

³² O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

- joylardagi davlat hokimiyati organlariga qarashli korxonalar, muassasa va tashkilotlar bo'yicha - ellik foizi ish beruvchilar mablag'lari va ellik foizi mahalliy byudjet va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan;

- boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlar bo'yicha - etmish besh foizi ish beruvchilar mablag'lari va yigirma besh foizi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish – to'la va samarali ish bilan ta'minlashga ko'maklashadigan eng muhim omillardan biri bo'lib, unga aholini ijtimoiy himoya qilish choralarining bir turi sifatida qaraladi. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda kadrlardan yuksak saviya, ijodiy tashabbus, zamonaviy iqtisodiy fikrlash, ishning yangi uslub va ko'nikmalarini egallash talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining 1999 yil 24 apreldagi **“Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida”gi nizomida**³³O'zbekiston Respublikasida ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimi orqali ularni kasbga o'qitish va qayta o'qitish, malakasini oshirish bosqichlari va tartibi yoritilgan bo'lib, bu tizim tarkibiga:

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishga doir masalalar bilan shug'ullanadigan tuzilmaviy bo'linmalari;

- ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirishning barcha turlari va shakllari bo'yicha kasbiy ta'limni tashkil qiladigan hududiy mehnat organlarining joylardagi O'quv markazlari;

- kasb-hunar kollejlari;

- korxona, muassasa, tashkilotlarning o'quv bo'linmalari;

³³O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining 1999 yil 24 apreldagi “Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida”gi nizomi // www.lex.uz

- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari (akademik litseylar) qoshidagi o'quv muassasalari;
- ta'limni tashkil etish xususida ruxsatnomasi bo'lgan tijorat va xo'jalik hisobidagi tashkilotlar, uyushmalar;
- shogirdlarga kasb o'rgatish imkoniyatlariga ega bo'lgan "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lgan tadbirkor xalq ustalarining maktablari kiradi.

3.2.Aholini ishsizlikdan himoya qilishning bozor va davlat mexanizmini takomillashtirish

Mamlakatda jiddiy ijtimoiy muammolar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat doimiy ravishda fuqarolarni ish bilan ta'minlashni oshirish siyosatini o'tkazadi. Birinchidan: ishsizlikning friksion va tarkibiy turlari o'sganda³⁴:

- qaytadan kasb o'rgatadi;
- ta'lim berish tizimini kengaytiradi;
- bo'sh ish joylari haqidagi axborotni keng tarqatadi;
- mehnat birjalariga investitsiyalarni ko'paytiradi.

Ikkinchidan, agar ishsizlik davriy xususiyat kasb etsa, davlat byudjet, fiskal, kredit-pul vositalarini ishga soladi, ya'ni:

- ish bilan ta'minlashni kuchaytiradi;
 - tadbirkorning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditorlarning foiz stavkalarini pasaytiradi.
 - ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi.
- Uchinchidan, davlat ishchi kuchi bozorini tashkil etish va tartibga solishda:
- aholi soni, yosh va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
 - ish bilan bandlikdagi tarmoq va hudud o'zgarishlariga;
 - qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezonlariga;
 - ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;

³⁴ Raximova N.X. Povishenie ekonomicheskoy aktivnosti jenshchin na rinke truda Uzbekistana. Avtoref. dis. dokt. ekon. nauk. – T.: IE AN RUz, 2007. 34 s

-ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi kabi omillarga alohida e'tibor beradi.

Ishsizlikni kamaytirishning eng asosiy iqtisodiy tadbirlaridan biri xalq xo'jaligi tarmoqlarida bozor talabiga muvofiq kichik korxonalarni barpo etishdir. Bu esa ishlab chiqarishning va xizmat ko'rsatishning miqyosini oshirishga qaratilgan bo'lishi darkor. Bunga esa, mehnat unumdorligini oshirish, ish joylarining moddiy texnikaviy, texnologiya va sarmoya ta'minotlarini yaxshilash, yangi noqishloq xo'jaligi mehnati zonalarini tashkil etish, ish vaqtdan unumli foydalanish, ishlovchilar moddiy manfaatdorligini oshirish va oqilona soliqlar orqali erishish mumkin.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdanoq mamlakatimizda eng dolzarb bo'lgan muammo – ishchi kuchi resurslarini ish bilan bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish masalasiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Mavjud muammolarni hal etish bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Shu bilan birga ularni hayotga tadbiq etish uchun qonuniy va me'riy asoslar yaratish zaruriyatidan kelib chiqib, shunday asoslarni shakllantirish borasida qonunchilik faoliyati olib borildi. 1992 yilning 1 yanvarida qabul qilingan «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni shunday faoliyat natijalaridan biri bo'ldi. 1998 yilda esa ushbu Qonunning yangi taxriri qabul qilindi va o'tgan davrlar mobaynida unga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritildi.

«Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni mamlakatda ish bilan bandlikni tartibga solishda va ishsizlik masalalarini hal etishda, qo'llaniladigan eng asosiy qonuniy xujjat bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari respublikada qabul qilingan qator farmonlar, hukumat qarorlari, turli dasturlar mana shu dolzarb muammoni hal etishga qaratilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu sohada yuksak natijalarga erishgan mamlakatlar, jumladan Shvetsiyaning tajribasini ijobiy tomonlarini qo'llagan holda, O'zbekiston

ishchi kuchi bozorida faol siyosat olib borilmoqda. Bunda ishsizlarga ishsizlik nafaqasi to'lab, ularni ijtimoiy himoya qilish bilan bir qatorda, ko'proq ish o'rinlari yaratib, mamlakat fuqarolariga daromad olish va uni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yilning 5 yanvarida e'lon qilingan «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmonga muvofiq bunday faoliyat turi, ya'ni kasanachilik bilan shug'ullanuvchilar mehnati yuridik maqomga ega bo'ldi. Yuqoridagi farmon asosida bu faoliyat turini jamiyatning har bir a'zosi manfaatiga xizmat qildirish imkoniyati yuzaga keldi. Eng avvalo, uy xo'jaligi ishi bilan bog'liq bo'lgan bu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchilar farmon asosida tegishli tartibda ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar olish va pensiyaga chiqish uchun ish staji bilan ta'minlanadilar. Shuningdek, farmonda kasanachilar bilan korporatsiya asosida hamkorlik qiluvchi sanoat korxonalari faoliyatida ham bir qator imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Korxona tomonidan kasanachiga foydalanish uchun berilgan asbob-uskunalar, inventarlarning ulardan foydalanish davrida mulk solig'idan, kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalarining kelasi oydan boshlab mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to'laydigan mablag' bilan teng miqdorda mehnatga xaq to'lash fondidan to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovdan ozod etilishi ana shu imtiyozlar jumlasiga kiradi. Shunga alohida e'tibor berish kerak bo'ladiki, faqatgina O'zbekistonga xos bo'lgan mahalla, mahalla bo'lib yashash tarzi kasanachilikni rivojlantirish va takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. qanchadan-qancha xotin qizlar uy bekalari xonadon sharoitida zardo'zlik, kashtachilik bilan shug'ullanmoqdalar.

Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatining asosiy mahsulotlariga talab va taklifga asosan istiqbol ko'rsatkichlarini belgilash, kichik yoshdagi bolalari bo'lgan va ko'p bolali onalarni, nafaqaxo'r va nogironlarni kafolatlashtirilgan ish joylari bilan ta'minlash hamda turli ijtimoiy-

iqtisodiy imtiyozlar berish orqali ularning moddiy manfaatdorligini oshirishni hamda ish bilan ta'minlanishini yaxshilashga erishish kiradi.

Binobarin, kasanachilik farmonda ta'kidlanganidek, «Ish bilan band bo'lmagan ishchi kuchi resurslarini ishlab chiqarishga jalb etish, oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqish va ba'zi bir xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish orqali yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorlikni oshirish maqsadida kasanachilikni rivojlantirish asosiy vazifalar hisoblanadi»

Shuni ta'kidlash kerakki, Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish korxonalar, ya'ni ish beruvchilar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki, kasanachi mehnatini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlar – zarur bo'lgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlarni kasanachiga berish va etkazish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashib ketish ish beruvchilar zimmasiga yuklatilgan. Bundan tashqari, kasanachilar bilan tuziladigan shartnomada ishlarni bajarish uchun ularni zarur asbob – uskunalar, jihoz hamda kerakli inventarlar bilan ta'minlashi ham ko'zda tutilgan. Demak, mehnat faoliyatining bunday turini keng qo'llash uchun, korxonalarning ham moddiy-texnika ta'minoti yuksak darajada bo'lishi lozim.

Farmonda kasanachilarni majburiy tarzda texnika xavfsizligiga o'qishish ko'zda tutilgan. Bu esa o'z navbatida kasanachilarni o'qitish uchun zarur bazani yaratishni taqozo etadi.

Ayni paytda kasanachilikni rivojlantirish korxonalarda yangi ish joylarni yaratish uchun sarflanadigan mablag'larni tejash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida tejalgan mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish, ishchi xodimlar mahnatiga to'lanadigan ish haqini oshirish, turli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshishi uchun zamin yaratilishi bilan bir qatorda, mamlakatda iqtisodiy o'sishni yuqori darajada ta'minlash uchun ham imkoniyat yaratadi.

Xozirgi paytda respublikada yuqorida ta’kidlangan Farmonda belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ishchi kuchi resurslari bilan yuqori darajada ta’minlangan, ayniqsa uning qishloq joylarida kasanachilik mehnatidan foydalanish, bunday mehnatning turlarini kengaytirish dolzarb masala bo’lib hisoblanadi. Chunki Farmonda asosan yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilik mehnatining kooperatsiyasi aloqalari to’g’risida so’z boradi. Ta’kidlash joizki, yirik sanoat korxonalari asosan katta shaharlarda joylashgan. Bunday xolat Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklab qo’yadi. Shuning uchun ham qishloq joylarida ko’proq xalq xunarmandchiligi an’analarini tiklash, fermer xo’jaliklari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Andijon viloyatida bunday imkoniyatlar mavjud bo’lib, ulardan foydalanish ishsizlik darajasini kamaytirish, aholining daromadlarini oshirish va natijada turmush darajasini yuksaltirish uchun asos yaratadi.

Ishchi kuchini ish bilan ta’minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini yashirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo’llab - quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar ishchi kuchi resurslarini ish bilan ta’minlanishiga bog’liqdir. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolotining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog’liq bo’lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

O’zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash” to’g’risidagi Qonunining 2-moddasida qayd etilganidek: “Ish bilan ta’minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o’z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo’lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir”.³⁵

Quyidagilar ish bilan band (ta’minlangan) deb hisoblanadi: - yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to’liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan,

³⁵ O’zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida»gi qonuni. – Toshkent, 1998.

shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;³⁶

-betobligi, mehnat ta'tili, kasbga qayta tayyorlash hamda malaka oshirish joyida ekanligi ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyi saqlanib turadigan va boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

-o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

-Qurolli Kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan, shuningdek muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

-Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;

-qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq quyidagi sabablarga ko'ra vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan fuqarolarning ish joyi saqlanib qoladi va ular ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadilar:

-davlat va jamoat vazirlarini bajarayotgan vaqtda;

-ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarganda;

-jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda.

O'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolar toifasiga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorlar;

-fermerlar va ularning ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan oila a'zolari;

-dehqon xo'jaligining ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

-kooperativlarning a'zolari;

³⁶ O'sha joyda.

-yozuvchilar, rassomlar va boshqalar.

Iqtisodiy jihatdan faol ishchi kuchi resurslari bo'lgani uchun, shu jumladan ishsizlar uchun ish bilan ta'minlash maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor:³⁷

1- yollanma xodimlar – bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2- Yakka tartib asosida ishlaydiganlar – mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltirayotgan ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanilgan yoki foydalanilmaydigan shaxslar.

3- Ish beruvchilar – o'zining hissadorlik jamiyatini, xo'jalik shirkatini va hokazoni boshqaradigan yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruvchilar o'z funktsiyalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yishni, korxonaning muvaffaqiyatli ishlash uchun javobgarlikni o'zida olib qolishi mumkin.

4 - Oilaviy korxonalarning haq to'lanmaydigan xodimlari - qarindoshiga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlardir.

5- Ish bilan ta'minlash maqomi bo'yicha tasniflashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar – ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan kishilar. Ularga ish bilan ta'minlashning birorta bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

Aholi tarkibini o'rganishning amaliy ehtiyoji ish bilan ta'minlashning turlarini ajratib ko'rsatish zarurligini nazarda tutadi. Masalan, to'liq, oqilona va erkin tanlangan ish bilan ta'minlanish bo'lib u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.

Iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan bozorni boshqarish (tartibga solish) siyosati uch asosiy maqsadga erishishni nazarda tutadi:

³⁷ Ziyaev T.M. Ishchi kuchi va bandlik nazariyasi. (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2009. – 65 b

- tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirish va bo'shab qolgan xodimlarni qayta taqsimlash jarayonini jadallashtirish;

- ishsizlarni mehnat hayotiga juda tezlik bilan jalb qilish;

- ish qidirayotganlarning har birini ish bilan ta'min etish.

Davlatning ishchi kuchi resurslarini ish bilan ta'minlash siyosatining chora – tadbirlari quyidagi sohalar bo'yicha tabaqalashtirilgan:

- ta'sir ko'rsatish ob'ekti bo'yicha (umumiy va ixtisoslashgan chora - tadbirlar);

- mablag' bilan ta'minlash manbalari bo'yicha.

Ishchi kuchi resurslarini ish bilan ta'minlash va unga ta'sir ko'rsatish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bevosita (ma'muriy) usullar: qonun yo'li bilan tartibga solish;

- mehnat qonunchiligi jamoa shartnomalari;

- bevosita (iqtisodiy) usullar; moliyaviy, monetar, fiskal (xazina) siyosati.

Ishchi kuchi resurslarini ish bilan ta'minlashga davlatning ta'sir ko'rsatish usullari:

- passiv ta'sir ko'rsatish – ish bilan band bo'lmaganlarga ijtimoiy yordam;

- faol ta'sir ko'rsatish – mehnat taklifini rag'batlantirish, mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirish, talab va taklifni muvofiqlashtirish chora – tadbirlari (axborot, maslahat xizmati ko'rsatish, kasbiy sohada maslahatlar berish, ishchi kuchi resurslarining kamroq raqobatbardosh guruhlar uchun bandlik dasturlarini ishlab chiqish va hokazolar), mintaqalarga yordam ko'rsatish chora – tadbirlari va shu kabilar.

Davlat bandlik siyosati doirasida ishchi kuchi bozorini tartibga solishda bandlik jamg'armalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bandlik jamg'armasi xarajatlarini shartli ravishda to'rtta yo'nalish bo'yicha qismlarga ajratish mumkin:

1. Ishsizlik bo'yicha nafaqaga sarflanadigan mablag'lar, ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish, uzoq mudatli pensiyalar to'lash (Bularni passiv siyosat deb atash qabul qilingan).

2. Qayta tayyorlash va jamoat ishlariga sarflanadigan mablag'lar. Faol siyosatning mazkur shakli amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadi, ya'ni bandlik sohasidagi davlat xizmati uchun majburiy hisoblanadi.

3. Moliyaviy qo'llab - quvvatlashga, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa xarajatlarga mo'ljallangan mablag'lar. Aytib o'tilgan bu shakllarni birlashtirib turadigan tomon shuki, ular qonun bilan kafolatlanmagan. Shu bilan birga "moliyaviy qo'llab - quvvatlash" moddasiga doir xarajatlarni ishchi kuchi bozoridagi faol siyosat shakllariga kiritish qabul qilingan.

4. Bandlik xizmatlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan mablag'lar (ularni ta'minlash, kapital mablag'lar, reklama, "Bandlik" axborot xizmati).

Davlat bandlik jamg'armasi quyidagi to'lovlarni amalga oshiradi:

- ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash;
- bandlik xizmati yo'llanmasi bilan ko'ngilli ravishda boshqa joylarga ko'chib boruvchining yo'l chiqimlari bilan bog'liq moddiy xarajatlarini qoplash;
- bandlik xizmati tomonidan kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash, malaka oshirish uchun stipendiyalar;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri uchun haq to'lash.

O'zbekistonda davlat bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Respublika bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillari xalqaro amaliyotga muvofiq keladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston bandlik xizmati mintaqalarda (viloyatlar, shahar va tumanlarda) ishlab turibdi.

Ishchi kuchi resurslarining bandligiga ko'maklashish bilan bog'liq xizmatlar bandlik xizmati organlari tomonidan bepul ko'rsatiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bandlikning nodavlat xususiy xarakteridagi tuzilmalarini ham tashkil etilishiga imkon bermoqda.

3.3. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini istiqbolli yo'nalishlari

Hozirgi zamon iqtisodiyotida har qanday iqtisodiy muammoga resurslar cheklanganligi nuqtai nazaridan yondoshiladi. Vaxolanki, O'zbekiston uchun

mexnat sig'imli, ishchi kuchiga talab etishmovchiligi sezilib turgan mehnat bozori xos. Xususan, respublikamiz mehnat bozoridagi muammolarni xal qilishda ham ana shu nuqtai nazar asos kilib olinishi va asta-sekin respublikamizda xam ishchi kuchiga cheklangan resurs sifatidagi yondoshuvni shakllantirib borish zarur. Belgilangan muammolar doirasida Ya. Kornaining bandlik modeli aloxida qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur masalani uning ta'limotidan foydalanib kurib chiqamiz.

Ish bilan bandlikning ikki klassik vaziyatlarini, birinchisi - cheklangan talabli mehnat bozori va ikkinchisi - resurslar cheklangan mexnat bozorini o'rganib, Ya.Kornai mazkur bozorlarning xususiyatlarini va ularning bir-biridan tub dan farkini asoslab beradi³⁸. Bu mazkur bozorlarning kuppina ko'rsatkichlariga: institutsional, xulq-atvor, funktsional, tarkibiy va h.k. larga tegishlidir.

Ya.Kornai tomonidan utkazilgan taxlil ularning sifat tafovutlarini tushunish, institutsional "makonini" izoxlash imkonini berib, ular shu erda ruyobga chikadi va eng muxdmi - bir modelning boshkasiga utishi tarkibiy xususiyatlari va tendentsiyalarini anikdash mumkin buladi.

Bu ikki o'tish modellari ko'rsatkichlarini oddiy vositalar bilan aniqlash imkoniyatini beradi. Birinchi model - talab cheklangan mehnat bozorini resurslar cheklangan mexnat bozoriga o'tkazishdir. Ikkinchi model - resurslar cheklangan mexnat bozorida talab cheklangan mexnat bozoriga o'tishdir.

Bizni ko'proq birinchi model qiziqtiradi, Ya. Kornai tomonidan maxsus taxlillar o'tkazilmaydi. Chunki u asarida bunday vazifani qo'ymadi³⁹. Bu modelni biz atayin ajratib, o'rganamiz, chunki u O'zbekiston iqtisodiyotining o'tish davri uchun xos bo'lgan asosiy tendentsiya va tarkibiy xususiyatlarni ifodalaydi.

Taqchillik kontseptsiyasi doirasida talab cheklangan mexdat bozorining negiz xususiyatlarini ajratamiz. Talab cheklangan bozor quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu bozorda ishchi kuchi potentsial zaxdrasining katta salmogi amal kiladi. Bu esa mazkur bozorni "xaridor bozori" ga aylantiradi. Etarli

³⁸ Kornay Ya. Defitsit. - M., 1990. S. 255-289.

³⁹ Ya. Kornaining transformatsion pasayish modeli keyinrok "Defitsit" kitobida rivojlantirilgan goyalardan foydalanib, ishlab chikildi. Kornay Ya. Transformatsion spad.// Voprosi ekonomiki. 1994, №3, s. 4-16.

bulmagan talab yollanma bandlar va band bulmaganlarni ish beruvchilarga kat'iy bog'lab qo'yadi. Mazkur vaziyat ishchilarning "talab-taklif" tizimidagi "kesishuv" ga ob'ektiv bog'liqligi va potentsial ishsizlik bosimi bilan izohlanadi. Chunki, birinchidan, ishchi o'rinlarini tanlash muqobil usullari cheklangan. Ikkinchidan, ishchi o'rinlarining kupchilik da'vogarlari uchun bandlik ular amal qilishining asosiy manbai hisoblanadi. Bu va boshqa omillar bandlarni doimo qo'rkuv va ishonchsizlik xolatida ushlab turadi. Chunki ular qiska muddatli kelajakda ishsizlikdan himoyalana olmaydilar.

Mazkur xolatlar nima uchun talab cheklangan mexnat bozorlarida nomutanosib xdpat mavjud bulishini va nima uchun bozor "xaridor bozori" xisoblanishini izoxlaydi.

Shunday qilib, talab cheklangan mehnat bozorida asosiy tendentsiya - xaridor rovida chikadigan ish beruvchi uz shartini kuyadigan tendentsiya xukmronlik kiladi. Ayni vaktida ishga yollanuvchi va ishchi kuchini sotuvchi sifatida chikuvchi unga tobe xolatda buladi. Bunday sharoitda taksimlash jarayoni bilan bog'liq noxush oqibatlar quyidagilar:

- ish olishni xoxlovchi kishilar ishchi o'rinlarini faol izlaydilar;
- agar bitta ishchi o'rniaga bir necha da'vogarlar bo'lsa, ularga navbatga turishga to'g'ri keladi;
- agar ishlash imkoniyati mavjud bulmasa, ular kutishga majbur buladilar;
- ma'lum vaziyatlarda da'vogarlar majburiy almashuv bilan, ya'ni ularning malakasidan past darajada ish bajarish bilan kelishishlari zarur buladi va h.k.

Talab cheklangan mexnat bozorida surunkali ishsizlik o'rinli bo'ladi. Bu bir vaqtning o'zida ishchi kuchining qisman taqchilligi xam, qisman ishsizlik xam mavjud bulishi bilan izoxlanadi. Ular muvofiqlashgan emas va mehnat bozoridagi keskinlik xolati bilan boglik; ravishda bir-birini kop lay olmaydi. Bu erda bir - biriga mos kelmaydigan ishchilar va ish beruvchilarning birgalikdagi xarakatlari xamda ishchi kuchi sotuvchilari uchun xam, xaridorlari uchun xam bandlikning optimal chizmalarini kamaytiradigan va kiyinlashtiradigan omillar kuzda tutilmoqda.

Surunkali (friksion) ishsizlik qolgan barcha kulay sharoitlarda ishlovchilar o'zlarini qoniqtiradigan ishchi o'rinlarini izlashni amalga oshiradigan vakt bilan izoxlanadi. Bundan tashqari, keskinlik unsurlari (transaktsion xarajatlar), mexnat sharoitlari va ish xaqi stavkalari va h.k. larni optimallashtirish maksadida ishga joylashtirish buyicha muzokaralar bilan bog'lik vakt xam ta'sir ko'rsatadi. Bu ishchi kuchi sotuvchilari uchun xos bo'lgan rag'batlar, xarakatlar va omillarning bir tomoni, xolos. Uning xaridorlari (ish beruvchilar) da xam muammolar kam emas.

Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda ish beruvchilar ishchilarga Karaganda katta mikdordagi ustunliklarga ega buladi. Bu ishchi kuchi xaridori tomoniga talab-taklif nomutanosibligi xolatida namoyon buladi.

Resurslar cheklangan bozor sharoitidagi ishsizlik me'yoriy darajasidan pastga tushib keta olmaydi, biroq uni oshira olmaydi xam. Shu bilan bir vaktida talab cheklangan "sof" bozor uchun xos bulgan surunkali ishsizlik batamom yukoladi

Resurslar cheklangan "sof" mexnat bozorining farqlovchi belgisi shundan iboratki, an'anaviy yollanma bandlar ishsizlar tomonidan raqobatni sezishmaydi. Chunki an'anaviy bozor ma'nosidagi ishsizlik xodisasi mavjud bulmaydi.

Ishchi kuchi takchilligi bu bozorning muxim resursli cheklovi xisoblanadi va ishchi kuchi xulk-atvorining uziga xosligini aks ettiradi. Bu xususiyatlar mazkur takchillikni xis etib turgan mamlakatlar mexnat bozori uchun ayni paytda xosdir. U quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi:

- ishchi kuchi taklifining talabga surunkali nomuvofikligini aks ettiradi;
- kumulyativ tavsifga ega, ya'ni ishlab chikarishning boishcha soxalariga jamgariluvchi ta'sirni uzida ifodalaydi;
- ishchi kuchining intensiv etishmovchiligi sharoitida uni taksimlash jarayoni sotuvchi tomoniga talab - taklif tabiiy nomuvofiushgini yuzaga keltiradi. Bu esa o'3 navbatida, mexnat resurslarining xaridori xarakatlariga (korxona va tashkilotlar) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Resurslar cheklangan bozordagi bandlik umumiy vaziyati aynan ishchi kuchi taqchilligi bilan belgilanadi. Ishchi kuchi takchilligi uzoq muddatli sabab-okibat

alokalarining ta'sir yunalishini belgilagan xolda uni taksimlashning butun tarkibiga ta'sir kursatadi. Resurslar cheklangan bozorning bu xususiyati bandlarni submikrodarajada xam taksimlash barkaror jarayonlariga yordam beradi. Bu erda zavodichki ishsizligi nazarda tutilmoada. U takchillikning unumli omili xdsoblanadi va korxonalarining (ishchi kuchi xaridorlarining) ishchi kuchi ichki zaxiralari bilan uzini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi. Uning takchilligi kdnchalik tez namoyon bulsa va u kanchalik intensiv bulsa, shunchalik kup ichki ishchi kuchi takchilligi, demak, zavodichki ishsizligi yuz beradi.


Shunday kilib, ishchi kuchining cheklangan taklifi uni mikrodarajadagi yashirin zaxiralash jarayonlarini yuzaga keltiradi. Bu esa surunkali va uzok muddatli xarakterdagi kuyidagi xodisalarga yordam beradi:

A) majburiy ishchi kuchi zaxirasi k;ator sabablarga kura, tuxtab kolishlar va zavodichki ishsizligining kup sonli xolatlarini xosil kilgan xolda ishlab chikdrishning zavodichki extiyojlarini nomutanosib kondiradi;

B) surunkali ishchi kuchi takchilligi ishlab chikarish intizomining susayishiga ob'ektiv ravishda yordam beradi. Chunki ishchi kuchi sotuvchilarining foydasiga bozor nomuvofikligi uning xaridorlari (ya'ni korxonalar) ga nisbatan ularning ma'lum ustunligini vujudga keltiradi. Ushbu vaziyat takchillikning kuchayishi bilan murakkablashadi - ishchilar ish beruvchilarga nisbatan uz xizmatlarining uziga xos monopolistlari bulib koladilar.

V) korxona darajasida ishchi kuchini zaxiralash surunkali jarayonini yuzaga keltiradigan takchillik uzok muddatli istikbolda butun jamiyat mikyosida mexnat resurslarining takchilligini kuchaytiradi. Yopik doira yuzaga keladi, chunki takchillikning o'sib boruvchi intensivligi, o'z navbatida, ishchi kuchini zaxdralash jarayonini kuchaytiradi.

Bu vaziyatlarni taxdil kilgan xolda aytishimiz mumkinki, talab va taklif uzaro ta'siri bir - birini belgilasada, mazkur stoxastik tizimda



barcha sabab-okibat boglanishlari asosiy yunalishga ega buladi, bu esa quyidagi tarzda namoyish etiladi:

Bu ikki tizim biz taxlil kdayotgan mexnat bozorining turli “institutsional tuzilmalari” ni kursatadi. Mazkur xolat funktsional kursatkichlari tavsiflanadigan tendentsiyalarning asosiy yunalishini belgilaydi. Bir vaziyatda ular ishchi kuchini taksimlash bozor (liberal) muassasalari xarakati bilan belgilanadi. Biz bevosita Uzbekiston mexnat bozoriga nisbatan taklif etayotgan mazkur utish modelida kuzda tutilayotgan resurslar cheklangan mexnat bozori yuqoridagi xususiyatlarni mujassamlashtirmaydi, aksincha, modernizatsiyalash va postindustrial iktisodiyotni shakllantirish jarayonlari bilan bogliq xususiyatlarni uzida mujassamlashtiradi. Bu tizimlar ichidagi determinatsiya omillarini va sabab-oqibat boglanishlarining yunalishlarini urganib, ishchi kuchining ommaviy xulq-atvori asosiy jarayonlari, bu muassasalar taxliliga aloxida to’xtalib o’tmaymiz. Bular bandlik soxasidagi taqsimlash jarayonlarining tarkibi va dinamikasi asosida yotadi.

Mehnat bozorining ikki turini tavsiflagan xolda bir bozorning boshkasiga utishi jarayonlariga e’tibor kdratamiz, eng avvalo, talab cheklangan bozordan muvozanatli malakapi mexnat bozoriga utish jarayonlari va tarkibini kurib chikamiz.

Bu jarayonni uch boskichga ajratamiz. Birinchi bosqich - 2010 yilgacha bo’lgan davr - talab cheklangan bozorning amal kilish davri. Qandaydir ideal namunadagi mazkur bozor turi O’zbekiston iktisodiyotining utish davridagi rivojlanish boskidchiga mos keladi. Bu mexnat bozorida keynscha kuchli davlat aralashuvi amal kilmaydi, kasaba uyushmalarining ta’siri esa cheklangan.

Ikkinchi boskich (2010-2020 yillar) davrida ishchi kuchi zahiralarining ommaviy koplanishi yuz beradi. Uchinchi bosqich (2021-2030 yillar) 2030 yildan boshlab, uzining yukori darajasiga erishib, mexnat bozori ishchi urinlari bilan etarli darajada tuyinadi va muvozanatli malakali mexnat bozorini xosil qilish bilan boglik jarayon vujudga keladi.

O’tish mazkur chizmasini ishlab chiqib, soddalashtirilgan shakldan foydalanib, bu jarayonni izoxlovchi asosiy omillar tavsifini xmda unda

katnashuvchi sub'ektlar iqtisodiy xulk-atvorining "o'zgarish" xususiyatlarini berishga urinib kuramiz.

2010 -2020 yillar davomida va 2021-2030 yillargacha amal qiladigan bandlik tizimi kursatkichlarining tubdan uzgarishi yuz beradi va uzoq muddatli sabab-oqibat aloqalarining asosiy ta'sir yunalishlari uzgaradi. Bu uzgarishlarning asosiy omili - jamiyat institutsional tuzilishini va takchil iqtisodiyot mexanizmlarining ishga tushishini ta'minlashdir. Natijada mexnat bozorini talab cheklangandan muvozanatli malakali mexnat bozoriga aylantirgan xolda uning tarkibi uzgartiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, muvozanatli malakali mexnat bozorida resurslar cheklanganligi nuktai nazaridan yondoshuv yuzaga keltiriladi. Ishchi kuchiga nisbatan xam ana shunday yondoshuv shakllantirilsa, samarali va sifatli bandlik tizimi modeliga o'tishga erishiladi, deb uylaymiz. Bizning fikrimizcha, 2010 yildan keyin mexnat bozorining uzgarish asosiy tendentsiyasi - korxona va tashkilotlarning kengayishga ichki intilishi yunalishida boradi va bu to'yinmagan "investitsion ochlik" bilan bog'liq rivojlanishdir.

2020 yil aloxida qiziqish uyg'otadi. Bu gipotetik vakdinchalik oralik davr bo'lib, bunda bizningcha, tizim tubdan "o'zgaradi", ya'ni ishchi kuchi ortikchaligi ishchi kuchi taqchilligi bilan almashinishi - mexnat bozorining sifat jixatdan o'zgarishi yuz beradi (2010 yilga nisbatan). Bunda ishchi kuchi takchilligi, deganda yuqori intellektual saloxiyatga ega bo'lgan, malakali kadrlarning etishmovchiligi nazarda tutilmokda. Chunki iqtisodiyotga investitsiyalar keng jalb etilib, iqtisodiyot tarkibi tubdan qayta qurilib, modernizatsiyalangach, shunga mos ishchi kuchiga bo'lgan talab o'sadi, talab cheklanganligi davri barham topadi xamda yukori malakali mutaxassislarga o'tkir talab vujudga keladi.

Shu bilan bog'liq ravishda ijtimoiy munosabatlar me'yorlari, teskari aloka mexanizmlari, bozor sub'ektlari mentalitetlari va iqtisodiy stereotiplari, ishchi kuchining sotuvchisi, xaridorlari uzgaradi. 2020 yildan boshlab, ishchi kuchi butun xujalik tizimining yukori cheklovchilaridan biri bulib koladi, bu cheklovlarni o'z vaktida bartaraf kilish tadbirlari muvofikdashgan xolda olib borilishi talab etiladi. Aks xolda mehnat bozorida salbiy jarayonlar kelib chiqishi mumkin.

2010-2020 yillarda kechayotgan jarayonlarni bir xil tasvirlab bo'lmaydi. Turli vaziyatlarda, ijtimoiy - madaniy sharoitlarda uning kechish intensivligi va tarkiblash sifati turlicha buladi. Shu bilan boglik; ravishda davlatning iqtisodiy siyosati muxim rol uynab, bu jarayon kanday va kay tarzda amalga oshirilishiga, u kancha chuzilishiga, kanday doimiy va vaktinchalik xodisalar bilan birga borishi, axoli utish davrida nimalarni yukotishi va h.k. larga tubdan ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonning yanada umumlashtirilgan xususiyatlari fikrimizcha, kuyidagilardan iborat:

1. Jamg'arish salmog'i. U 2010-2020 yillar davri davomiyligi nuqtai nazaridan hal qiluvchi axamiyat kasb etadi. Jamgarish salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa, ishchi kuchi ortiqcha zaxirasining qoplanishi shunchalik tez boradi. Pirovardida pasayib boruvchi usish sur'atlarida xam ishsizlik bartaraf kilinadi.

2. Kapital qo'yilmalar tarkibi. Kapital qo'yilmalar xajmi va nisbatlaridan k;at'iy nazar, ishchi kuchini qoplash jarayoni shunday chegarasiga (k;oplanish) erishadiki, u iqtisodiy tizim cheklovchilaridan biriga aylanadi.

3. Iqtisodiy o'sishning tarmoq (ishlab chikarish) tarkibi. 2010-2020 yillar davrining uzunligi xam iqtisodiyot turli tarmoklaridagi rivojlanish ustuvorliklariga boglik. Biroq shundan qat'iy nazar, u oxirgi xolatga erishadi, uning uchun resurslar cheklangan mexnat bozori xosdir. Chunki engil, ogir sanoat yoki kishlok xujaligi rivojlanishiga ustuvorlik berilishi axamiyatga ega emas. Ishchi kuchi takchilligi infratuzilma va xizmatlar rivojlanishi vaziyatlarida xam kuchayadi. Shunday kilib, 2010-2020 yillar davrida bu jarayonning asosiy tendentsiyasi - ishchi kuchiga bulgan talabga moslashish davri bulib, unga uz navbatida, kapital kuyilmalarning taksimlanishi va dinamikasidagi xukmron tendentsiya ta'sir kursatadi. Bu davrda kadrlar tayyorlash va kayta tayyorlash tizimiga kuyiladigan talablar yanada kuchaytirilishi talab etiladi.

4. Texnologiyalar tanlovi (xarajatlar tarkibi). Talab cheklangan bozorning shakllanish jarayoni bu erda ikkita qarama - qarshi tendentsiya dinamikasi bilan belgilanadi. Birinchi jarayon - fond sig'imli texnologiyalarni joriy etishdir. Ikkinchi tendentsiya - unga to'g'ridan - to'g'ri qarama-qarshi, chunki 2010-2020

yillar davrida investitsiyalarning cheklanishi va ishchi kuchi ortiqchaligi bilan bog'liq ravishda masala mexnat sigimli texnologiyalar foydasiga xal qilinadi. Mazkur ikki tendentsiya 2010-2020 yillar davrida turli darajada namoyon bo'ladi. Ikkinchi tendentsiya ishchi kuchi ortiqcha zaxirasi mavjud O'zbekistonda etakchilik kiladi. Ish bilan bandlar takchilligi fakat chegarasiga etganda, birinchi tendentsiya xukmronlik qila boshlaydi. Shunday kilib, bandlik o'sishining ekstensiv davri yakunlanadi va ishchi kuchi takchilligi intensiv davrga ob'ektiv o'tishini belgilovchi etakchi omil bulib koladi. Bu tendentsiya 2021-2030 yillar davrida va kup darajada 2030 yildan keyingi davrda etakchilik kila boshlaydi. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda 2010-2020 yillarda ishchi kuchi ortikchaligi muammosini mexnat sig'imli ishlab chiqarishlarni, xususan, engil sanoatni, kishlok xo'jaligi maxsulotlarini kayta ishlovchi tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish orkali bartaraf etish, ekstensiv usulda ishchi urinlarini yaratish, maksadga muvofiq. 2030 yillardan keyin vujudga keladigan yuk;ori bilim va malakali kadrlar takchilligi muammosini ko'p kapital talab kiladigan, fan sig'imli tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish orqali bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar ishlab chikish zarur.

III- bob bo'yicha xulosalar

Ishchi kuchi takchilligi bu bozorning muxim resursli cheklovi xisoblanadi va ishchi kuchi xulk-atvorining uziga xosligini aks ettiradi. Bu xususiyatlar mazkur takchillikni xis etib turgan mamlakatlar mexnat bozori uchun ayni paytda xosdir. U quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi:

- ishchi kuchi taklifining talabga surunkali nomuvofikligini aks ettiradi;
- kumulyativ tavsifga ega, ya'ni ishlab chikarishning boishcha soxalariga jamgariluvchi ta'sirni uzida ifodalaydi;
- ishchi kuchining intensiv etishmovchiligi sharoitida uni taksimlash jarayoni sotuvchi tomoniga talab - taklif tabiiy nomuvofiushgini yuzaga keltiradi. Bu esa o'3 navbatida, mexnat resurslarining xaridori xarakatlariga (korxona va

tashkilotlar) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Resurslar cheklangan bozordagi bandlik umumiy vaziyati aynan ishchi kuchi taqchilligi bilan belgilanadi. Ishchi kuchi takchilligi uzoq muddatli sabab-okibat alokalarining ta'sir yunalishini belgilagan xolda uni taksimlashning butun tarkibiga ta'sir kursatadi. Resurslar cheklangan bozorning bu xususiyati bandlarni submikrodarajada xam taksimlash barkaror jarayonlariga yordam beradi. Bu erda zavodichki ishsizligi nazarda tutilmoada. U takchillikning unumli omili xdsoblanadi va korxonalarning (ishchi kuchi xaridorlarining) ishchi kuchi ichki zaxiralari bilan uzini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanadi. Uning takchilligi kdnchalik tez namoyon bulsa va u kanchalik intensiv bulsa, shunchalik kup ichki ishchi kuchi takchilligi, demak, zavodichki ishsizligi yuz beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2009.-40 b.
2. "Chet el investitsiyalar to'g'risida gi" O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi Qonuni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. Adolat, 2004 y.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

3. 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-1442., 15.12.2010 y.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral.

5. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 07.02.2011 y. № PQ-1474.

6. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010- 9 mart.

7. “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida: O'zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so'zi. -2009. - № 238. – mo dekabr. – 1 b. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2010 yil 29 yanvar, PQ-1051-son.

9. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 26.01.2009 y. № PQ-1046

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me'yoriy hujjatlari

11. O merax po dalneyshemu razvitiyu i modernizatsii predpriyatiy tekstilnoy promishlennosti i rasshireniyu proizvodstva otechestvennix neprodovolstvennix potrebitelskix tovarov na 2009-2011 godi: Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan ot 20 avgusta 2009 goda № 236 //Sobranie zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan – 2009. - № 34. – 372.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to'g'risida Qarori//O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 1999 54 – son, 1999 dekabr. – T.:Uzbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20 b. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM. 1999 yil 5 fevral. – T.:O'zbekiston, 1999.- 92 b.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

13. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //Xalq so'zi, 2013 yil 19 yanvar.

14. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Prezident I.A.Karimovning “2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi” // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.

15. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

16. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. - T.: O'zbekiston, 2010. – 53 b.

17. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga

mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

18. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

VI. O'quv qo'llanmalar

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU. - 2012. – 382 b.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T.: Iqtisodiyot, 2010. – 281 b.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. 2011.– 377 b.

22. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng

jamoatchilik bilan uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. - 148 b.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 b.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: “Iqtisodiyot” 2010.-281 b.

25. Bekmurodov A.SH., Karrieva YA.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 166 b.

26. Shodmonov Sh., Jo'raev T., «Iqtisodiyot nazariyasi» ma'ruza matnlari. T.: DitaF, 2000 y.

27. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi T. «Moliya», 2002 y.

28. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2012. -389 b.

29. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – T.: “TDIU” 2011, 420 b.

30. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Aholini ish bilan bandligi.O'quv qo'llanma.-T.: “TDIU” 2011, 230 b.

31. Mirzakarimova M.M. Bandlikda ijtimoiy sheriklik. Monografiya. T.: “O'zbekiston milliy entseklpediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2013 y., 202 b.

32. Mirzakarimova M.M., Haydarov M.T. Ijtimoiy sheriklik va samarali bandlik. Monografiya. – T.: “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti” nashriyoti, 2014.-224 b.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

33. Investitsii respubliki Uzbekistan 2010. Statisticheskiy sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 148 s

34. Trud i zanyatost v Respublike Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. - T.: 2010. - s. 105.

35. Trud i zanyatost v Respublike Uzbekistan 2010. Statisticheskiy sbornik. - T.: 2011. - s. 107.

36. Promishlennost respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 156 s.

37. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2011 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2012.

38. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot taxlilii byulleten 2012 yil uchun. T.: JICA nashriyoti. 2013.

VIII. Internet saytlari

39. www.press-service.uz—O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti

40. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti

41. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti

42. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali

43. www.eurasianews.com – EvroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti

44. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti

45. www.InternetNews.com – yangiliklar serveri

